

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKUL`TETI

TARIX O`QITISH METODIKASI KAFEDRASI

TARIX O`QITISH METODIKASI

BAKALAVR TA`LIM YO`NALISHI 4^B KURS TALABASI

Babadjanov Daniyor Aybek o`g`li

**«Jahon tarixi darslarida «Qadimgi Misr» mavzusini
o`rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish»**

BITIRUV MALAKAVIY

ISHI

**Ilmiy rahbar:
Tarix fanlari nomzodi,
prof. M.Tleumuratov**

Nukus-2016

Kirish	4
I-BOB: Qadimgi Misr tarixi:	10
1.1. Manbalar, tabiiy sharoit, aholisi.....	10
1.2. Davlatning paydo bo'lishi.....	14
1.3. Qadimgi podsholik davrida Misr	17
1.4. Qadimgi Misr madaniyati.....	25
II-BOB: Jahon tarixi darslarida «Qadimgi Misr» mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish:	34
2.1. Qadimgi Misr mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyadan foydalanish.....	38
2.2. Qadimgi Misr madaniyatini o`rganishning usullari.....	51
Xulosa	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati	66

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda yosh avlodga ta`lim-tarbiya

berish, kasbga o`rgatish, ularning aqliy va ma`naviy kamol toptirishdan iboratdir. «Ta`lim to`g`risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda ta`limning mazmuni va vositalarini yangidan ishlab chiqishni hayotning o`zi talab qilmoqda. Bu omil ta`lim jarayonini tarkibiy qismlarini yangicha tartibda namoyon bo`lishini talab etadi. Ana shu tashkiliy-pedagogik jarayonda ta`lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta`lim usullarining paydo bo`lishi, ta`lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa ta`limni tashkil etishda o`qituvchi mahoratining noan`anaviy shakllari keng ko`lamda joriy etilishi kuzatilmoqda.

Jamiyatimizdagi ko`pchilik insonlar o`qituvchilarni kunlar, haftalar va oylar davomida o`qitiladigan fan bo`yicha asta-sekinlik bilan turli xil ko`rsatma va topshiriqlar beradigan hamda bir maromda qandaydir bilimlar majmuasini o`quvchilarga singdiradigan mutaxassislar sifatida tushunadilar. Lekin ularning qanday ko`rsatma va topshiriqlar berishlari hamda bunday usullar qanday samara berishini ko`pchilik bilmaydi yoki tushunmaydi. Shuning uchun ham, yillar davomida ta`lim berishning bir qancha usullari va uslubiyati vujudga keldiki, ularning jamiyatdagi o`rni, ahamiyati beqiyosdir. Shu o`rinda, Prezident I.A.Karimov ta`lim tushunchasiga milliy demokratik nuqtai nazardan yondoshib quydagicha ta`rif bergan edi: “Ta`lim O`zbekiston xalqi ma`naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini baxsh etadi. O`sib kelayotgan avlodlarning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo`ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o`tadi”¹. Ta`kidlangan maqsadni amalga oshirish uchun ta`limning yangidan-yangi uslublari yaratilmoqda. Ba`zi bir ta`lim berish uslublari o`quvchilarning bilim olish jarayonini o`rganish asosida tashkil etilgan bo`lsa, boshqalari dars berish jarayonida ro`y beradigan muammolarni hisobga olgan holda tashkil etilgan. O`qitish uslubiyatining boshqa turlari esa bir qancha olimlar tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy-mantiqiy modellar asosida, masalan, Suqrot uslubi, muloqot usulida tashkil qilingan. Undan so`ng o`qitishning ta`lim berish

¹ Karimov I.A. O`zbekiston o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li.-T.: “O`zbekiston”, 1994, 78-bet

modellari asosida tashkil etish keng miqyosda amalga oshirila boshlandi. Bunda o`quvchi-talabalarning ma`lum bir soha yoki fandan bilim olishlari maxsus usullar, modellar, ta`lim standartlari yoki strategiyalar asosida amalga oshiriladi. Ba`zi bir modellarda o`qituvchi dominant rolda bo`lib, barcha ta`lim berish vazifalarini o`zi hal qilar, boshqalarida esa talabalarga to`la erkinlik berilib, ular demokratik tamoyillar asosida o`qitiladi, yana boshqa birlarida esa o`quvchi va o`qituvchi orasida tenglik hamda ijodiy fikr almashinish jarayoni amalga oshirilib, o`zaro muloqot vositasida interfaol ta`lim jarayoni amalga oshiriladi. Lekin bu modellarning ishlatilishi va samarasi o`quvchilarning bilim darajasiga, intilishlariga, ongining rivojlanish ko`rsatkichlariga har doim ham mos kelavermaydi. Masalan, sinfxonadagi o`quvchilarning aksariyati bilim olishni unamaydigan va bunga intilmaydigan bo`lsa, ammo o`qituvchidan ularga qandaydir usullar bilan bo`lsa ham qandaydir bilim berish talab qilinsa, u holda yuqorida ko`rsatib o`tilgan har qanday model, usul yoki strategiya ham o`z-o`zidan ojizlik qilib qoladi. Bunday hollarda ta`lim berishning eng yangi modellaridan biri kooperativ ta`lim berish modeli bo`lib, unda o`quvchilar va ta`lim beruvchi instruktor birgalikda ma`lum bir hayotiy masala yoki muammolarni hal qilish jarayonida tegishli malakaga yoki bilimga ega bo`ladilar. Ammo hozirgi ta`lim berish jarayoni asosan sinfda yoki maxsus jihozlangan xonalarda talabalar va o`qituvchining o`zaro muloqoti orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizda mustaqillik yillarida umumiy o`rta ta`lim maktablarida ta`lim sohasida, o`qitishni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish hozirgi jamiyat taraqqiyoti talabidan kelib chiqmoqda. Hozirgi davr ta`lim berish jarayonini quyidagi asosiy jihatlar bilan ifodalash mumkin:

- o`qituvchining faoliyati nafaqat ilmiy-amaliy, balki ijodiy-artislik asosda ham amalga oshirilishi lozim;

- o`qituvchining dars berish jarayonidagi roli ancha murakkab bo`lib, uning o`ziga xos tarixiy va zamonaviy jihatlari mavjud. Oldingi davrlarda o`qituvchilarning faqatgina zamonaviy bilimlar berishi talab qilinsa, hozirda

ulardan tarbiyaviy, madaniy-ma`naviy, siyosiy va amaliy bilimlar berish ham talab qilinadi;

- hozirgi paytda ko`pchilik o`quvchilar bilim darajasi bir-biridan anchagina farq qilishini hisobga olganda, o`qituvchilarning ishi yanada murakkablashadi – endi ular avvalgidan farqli o`laroq, turli xil bilim darajasi va turli amaliy ko`nikmalarga ega bo`lgan o`quvchilar jamoasida ishlashlariga to`g`ri keladi. Bu esa ulardan ta`lim berishda yangi usul va uslubiyatlar qo`llanishini taqozo qiladi;

- o`qituvchilarga bo`lgan talab ham sezilarli darajada oshdi va endi ular nafaqat ilmiy, balki ma`rifiy va amaliy bilimlarni ham puxta egallashlari zarur;

- ilm, fan va texnikaning jadal rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyalarning jamiyatning barcha qatlamlariga kirib borishi, axborot texnologiyasi vositalarining barcha davlat va nodavlat muassasalarida qo`llanilishi o`qituvchilardan uzluksiz bilim olishni talab qilmoqda;

- o`qituvchilarning faoliyati ko`p qirrali bo`lib, ular boshqaruvchi, muloqot qiluvchi, yo`naltiruvchi, tashkil etuvchi va baholovchi rollarini amalga oshirishlari kerak bo`ladi.

Bugungi kunda ta`limning ana shunday usullaridan biri interfaol ta`limdir. Interfaol ta`limning asosini interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Ta`limning interfaol metodlari o`quvchilarning ulkan ta`limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o`quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi: ta`lim oluvchilar guruhining aqliy kuchi yig`indisidan ko`proq.

Interfaol ta`lim asosini o`quvchilarning guruhlarda hamkorlikda ishlash faoliyati tashkil etadi. O`quvchilarining o`quv faoliyatini tashkil etish bilan bog`liqlikda individual, guruhli va jamoaviy ish shakllaridan foydalanishga keng e`tibor qaratilgan. O`qituvchilarda pedagogik texnologiyasini tarkib toptirish muammosining ijobiy hal etilishi – ushbu muassasalarda faoliyat yuritayotgan o`qituvchilarning pedagogik texnologiyalar va ularning mohiyati borasida ma`lumotlarga qanchalik egaligi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llay olish layoqatining shakllanganligi, shuningdek, mazkur umumiy ta`lim maktablarida

ta`lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirilishiga nisbatan e`tiborning qaratilayotganligiga bog`liqligi va bu muammo hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini nazarda tutib, biz bitiruv malakaviy ishimizni **“Jahon tarixi darslarida «Qadimgi Misr» mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish”** deb nomladik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: Jahon tarixi darslarida «Qadimgi Misr» mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo`yicha tavsiyalar va pedagogik loyixalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning ob`ekti: Jahon tarixi darslarida «Qadimgi Misr» mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalarni qo`llash jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Jahon tarixi darslarida «Qadimgi Misr» mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalarni qo`llashning mazmuni, shakl va usullari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- jahon tarixi darslarida interfaol metodlarni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash;
- o`qitish jarayonida pedagogik texnologiya usullarining o`rni va ahamiyatini tushuntirish hamda o`qitishni zamonaviy tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish borasidagi tajribalarni o`rganish;
- mutaxassislik fanlarini o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo`llash bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari:

Mavzuga oid tegishli adabiyotlar o`rganildi, tahlil qilindi va muammoning nazariy va amaliy asoslari o`rganildi. Shuningdek, ishning maqsadi, vazifasi, ilmiy farazi aniqlandi. Pedagogik texnologiyadan foydalanishning bugungi holati o`rganildi. Ta`lim-tarbiya jaryonida o`qitishning zamonaviy interfaol usullaridan foydalanishga oid tajribalar kuzatildi va tahlil qilindi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari:

Sharq mutafakkirlarining ta`limotlari, O`zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi uzluksiz ta`lim tizimining mazmunini belgilab beruvchi me`yoriy hujjatlar, xususan, O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar, O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan qabul qilingan me`yoriy hujjatlar, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan g`oyalardan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi: interfaol metodlar asosida zamonaviy o`qitishning samaradorligi quyidagi holatlarda yuqori bo`lishi mumkin, agarda:

- interfaol metodlar asosida zamonaviy o`qitishni muayyan tizimga ega bo`lgan mazmun, shakl va metodlari ishlab chiqilsa;
- o`qitishni tashkil etish jarayonida interfaol metodlardan keng qo`llanilsa va o`qitishning pedagogik shart-sharoitlari inobatga olinib, ko`rgazmali va ko`rsatmali qurollardan foydalanishga erishilsa;
- interfaol metodlarni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlariga yo`naltirilgan pedagogik jarayon muayyan ilmiy-pedagogik tavsiyalarga tayangan holda tashkil etilsa, darslarda interfaol metodlarni qo`llash jarayoni samarali bo`ladi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:

1. Interfaol metodlarni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari dolzarb pedagogik muammo sifatida amaliy jihatdan asoslandi.
2. O`qitishning zamonaviy tashkil etishda pedagogik texnologiyalar usullari, vositalari takomillashtirildi.
3. Interfaol metodlarni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlariga yo`naltirilgan darslarning samaradorlik darajasi aniqlandi va o`quvchilarda interfaol metodlarni qo`llashga yo`naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy ahamiyati: Interfaol metodlarni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlariga yo`naltirilgan nazariy yondoshuvlar,

ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitildi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati: Tajriba jaryonida ishlab chiqilgan materiallaridan o`qituvchilar keng foydalanish mumkin. Ta`lim muassasalarida pedagogik texnologiyalar asosida ta`lim jarayonini tashkil etishda keng qo`llaniladi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: kirish, 2 bob, 6 paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I-BOB: QADIMGI MISR TARIXI:

1.1. MANBALAR, TABIIY SHAROIT, AHOLISI.

Misr davlati o'zining qadim madaniyati, boy tarixi bilan boshqa rivojlangan davlatlar orasida etakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Misrning ko'p asrlik tarixi va madaniyati toshlarda, sarkofaglarda, rassomlarning asarlarida, usta-hunarmandlarning ijodlarida, me'morchilik inshootlarida muhrlanib qolgan.

Eramizdan 3000 yil burun rivojlana boshlagan bu madaniyat rimlik istilochilar Misrni egallab olgunga qadar, ya'ni eramizning 30 yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Misr madaniyatining shakllanishida Nil daryosi salmoqli o'rinni egallaydi.

Bu ulkan daryo Nubiylar – hozirgi Sudan davlati chegarasidan oqib chiqib, shimolda O'rta dengiziga borib qo'shilish uchun 6000 km dan ziyod masofani cho'l-sahro orqali bosib o'tadi.

U o'z yo'lida «Oq Nil» va «Ko'k Nil» deb ataluvchi qo'shimcha daryolarga bo'linadi. Oq Nil «Viktoriya» va «Al'bert» degan dengizlar suvidan hosil bo'lgan ko'llardan suv oladi. Ko'k Nil esa Abissin tog'idan oqib tushadi. Bu tog' har yili bir marta Hind okeani tomonidan keladigan yomg'irli bulutlarni to'sib qoladi. Buning natijasida kuchli yomg'ir yog'ib, yangi oqimlar vujudga keladi. Bu vaqtda daryo suvi 15 metrdan ziyod ko'tarilib, 1971 yilgacha, ya'ni Assuan suv ombori qurilgungacha har yili suv toshqini hosil qilgan. Uch oy mobaynida daryo atrofidagi erlar ko'lga aylangan va nihoyat, orqaga chekingan suv o'zining hosildor loyqasini Nil atrofidagi erlarga hadya etgan. Haqiqatan ham bu joylar dunyodagi eng unumdor erlardan biri bo'lib, undan yiliga uch martagacha hosil olingan. Shuning uchun ham Nil daryosining qirg'oq erlari odamlarni o'ziga jalb etgan.

Kelib chiqishi hozirgacha noma'lum bo'lgan kishilarning Nil daryosi qirg'oqlarida o'rnashishlari, fikrimizcha, tosh davriga to'g'ri keladi.

Odamlar bu erlarga Qizil dengiz tomonidan, Hamamat vodiysi orqali kelishgan. Yomg'irsiz Misr sahrosida vohadan vohaga ko'chib yuruvchi

ko`chmanchi – ovchilar ham yagona hayot manbai bo`lgan shu erdan makon topganlar. Aytish mumkinki, dastlabki jiddiy ravishda o`rnashish eramizdan avvalgi 6000 yil bilan 5000 yillar oralig`ida bo`lgan.

Bu davrda hali metall ishlatishni bilmagan odamlar hayot uchun muhim bo`lgan qurol-aslahalarni, asosan, yog`och va toshlardan yasaganlar. Odamlarning kulbalari esa xom g`ishtdan qurilgan. Bu qurilish ashyosi shu erning quruq iqlim sharoitiga mos bo`lganligi uchun Misr madaniyatining butun rivojlanish davrida asosiy hisoblangan.

Ma`lumki, qadimgi xalq madaniyati haqidagi qimmatli ma`lumotlarni maqbaralardan bilish mumkin.

Maqbaralardan topilgan bosh suyaklaridan ko`rinadiki turli qabilalardagi odamlarning hammasi ozg`in va past lekin bitta irqqa mansub bo`lmagan.

Jazirama sahroning qaynoq qumi inson badani bilan birga uning sochlari va terisini ham saqlagan.

Misrliklar murdaning kiyim-kechaklari bilan birga ko`mishni rasm qilgan edilar. Har xil joylardan topilgan bir qator maqbaralar ularning oddiy tuzilganligidan dalolat beradi.

Bu maqbaralarni sinchiklab tekshirgan arxeologlarning aytishlariga qaraganda, o`sha davrda Nil sohillarida, Badaryan, Amratan, Tazian va shunga o`xshash har xil qabilalar mavjud bo`lgan. Har bir qabila o`z erini tish-tirnog`i bilan himoya qilgan.

O`zaro urushlar Nil vodiysi aholisini urug`dosh guruhlarga bo`lib yuborgan. Har guruhning o`z boshlig`i (etakchisi) bo`lgan. Keyinchalik bu guruhlarning birlashishi natijasida viloyatlar «nom»lar vujudga kelgan.

Misr tarixini o`rganishda tarixchi Gerodotning ma'lumotlari uning Misr bo`ylab kezman davridagi to`plagan ma'lumotlari, jumladan Fir'avnlarning to`g`risida.¹ Shuningdek, grek tarixchisi Plutarx ham ma'lumotlar bergan. Ammo ikkala tarixchi ham Misr yozuvini o`qiy olmaganlar. Yangi zamon

¹ Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г. А. Стратановского. — М.: 1999.

tarixchilari fikrlarini aytishdan oldin Misr tarixini yoritishda muxim manbalar xisoblangan piramidalar, maqbaralar, ibodatxonalar, xaykallarga bitilgan yozuvlari tarixini o`rganishdan boshlash kerak. Dastlabki Misr yozuvini o`qib chiqqan fransuz olimi Shampant'anni alohida ta'kidlab o`tish lozim. Keyingi manba 1799 yilda Banapartning Misrga yurishi vaqtida arxeologlar Rozet qishlogida olib borgan ishlarida, jumladan ular qadimgi yozuvlarni o`qib chiqib, "muxim yangiliklar"ni, ya'ni Makedoniyalik Ptolemey podsholik qilgan davrini aniqladilar. Hamda u chiqargan qonunlarni ikki tilda yozilganligini bu manbalar toshga o'yib yozilganligini birinchi bo`lib topdilar.

Misr tarixini o`rganishda muxim manbalardan biri arxeologik yodgorliklar hisoblanadi.

Yuqorida aytib o`tganimizdek Misrda ko`pgina yodgorliklar piramidalarning ko`pchiligi, devorlari yozuvlar bilan qoplangan. Muxtasam Fiva ibodatxonalari va boshqalar er betida saqlanib qolgan.

Lekin bu yodgorliklarning ko`pchiligini qum bosib ketgan. Ularni ochish uchun esa qazish ishlari o`tkazishga to`g`ri kelgan.

Qazishlar natijasida butun-butun shaharlar va qoyalarga uyilgan maqbaralar ochilgan. Gap shundaki er.ol. II ming yillik o`rtalarida Misr Firavnlarning jasadlarini hammaga ko`rinib turadigan va talon-taroj qilish oson bo`lgan piramidalarga ko`mmasdan balki xech kim bilmaydigan qilib b qoyalarga uyib ishlangan. er osti maqbaralariga ko`mganlar. Baribir bu daxmalarning ham ko`pchiligi talangan. Ulardan faqat bittasi saqlangan. U ham bo`lsa Fiva shahrining g`arb tomonida podsholar vodiysidan topilgan mashhur Tutanxamon (er.av.XIVasr) maqbarasidir. Uni 1922 yilda ingliz arxeologi T.Karter topgan. Bu daxmaning to`rtta xujrasidan birida podshoning mumiyosi qo`yilgan. 19 yoshli kasalmand yigit Tutanxamon jasadi ajoyib nafis qilib ishlangan g`oyat go`zal oltin tobutga solingan. Daxmaga xovo kimaganligidan bo`tako`z va nilufardan ishlangan gulchanbar va guldastalar ham 3300 yil davomida juda yaxshi saqlangan. Xozir manashu qimmatbaho yodgorliklar Mirs Arab Respublikasining poytaxti Qoxira muzeyida saqlanadi.

Arxeologik yodgorliklar quyidagilardir:

1. Fiva ibodatxonasi.
2. Tutanhamon maqbarasi.
3. J.Korterning izlanishlari,
4. Asvon to'gonidagi yodgorliklar.
5. Koya toshlardagi rasm yozuvlari.
6. Ayniqsa 19 yoshli kasalmand Tutanhamon maqbarasining topilishi uning jasadi bugungi kunda saqlanmoqda, uning tarixi 3300 yilga teng.

Qadimgi Misr

Dunyoning eng katta daryolaridan biri Nil janubdan shimolga karab chyldan utadi. U Markaziy Afrikadagi katta kullardan okib keladi. Daryo ostonalaridan okib utgach, 700 km masofadagi chukur vodiya tekis okadi va O`rta er dengiziga borib kuyiladi. Nil dengizga kuyiladigan joyda tarmoklarga boshlanib, tula-tukis manzarasi uchburchak simon, ya`ni yunoncha "*Oelta* " xarfiga uxshash bulgan mansab (delta) xosil kiladi. Nil vodiysi va mansabida Kadimgi Misr joylashgan. Shuning uchun xam "tarix otasi" Gerodot uz kitobida Misrni "Nil tuxfasi" deb bejiz aytmagan.¹ Nil vodiysi xar ikkala tomondan kirgok buylab 3 km dan 22 kmgacha kenglikdagi va 6 ming km uzunlikdagi sugoriladigan erlardir. Dunyoda birinchi sinfiy jamiyat va davlat Misrda tashkil topgan. Kadimgi Misrda dexkonchilik juda katta mexnat talab kilar edi. Dexkonchilik Misrliklarning asosiy mashguloti bulgan. Nil vodiysi va mansabdagi erlarda arpa, bugdoy, zigir, sabzavotlar ekilar, mevali bog va uzumzorlar yastanib yotar edi. Misrliklar urtasida kulollar, tukuvchilar, tosh yunuvchilar va boshka xunarmandlar bor edi. Kadimgi misrliklar bir tilda (turli shevada) gapradigan samit – xamit guruxiga mansub yagona xalk bulgan. Dexkonlar, chorvadorlar va xunarmandlar bir-biri bilan mexnat maxsulotlarini ayribosh kilishgan. Butun Misr orkali utgan kulay suv yuli tovarlar ayirboshlashni osonlashtirgan. Odamlar mexnati Nil vodiysini uzgartirib

¹ Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г. А. Стратановского. — М.: 1999.

yuborgan, natijada inson yashashi uchun deyarli yaroksiz bulgan joyda Misr davlati karor topdi. U er.avv. IV ming yillikdayok axoli zich yashaydigan mamlakatga aylangan. Nil vodiysining unumdor tuprogi yaxshixosil berar edi. Odam bu erda uzini bokish uchun kerak buladiganidan kuprok galla etishtira olar edi. Boshka kishilarni uziga ishlashga majbur kilish foydalirok bulib koldi. Kadimgi Misrda kup sonli dexkonlar sinfi karor topdi. Ularni uz kabilasining zodagon kishilari ekspulatatsiya kilar edi. Kabila ishlarini idora kilganlari uchun yul boshchilar va oksokollarga tulanadigan badallar, majburiy va ogir ulponga aylanib ketdi.

1.2. DAVLATNING PAYDO BO`LISHI

Odamlar mexnati unumlirok bulgan vaktida asirlarni koldiradigan bulishdi. Odatda ularni va boshka xarbiy uljalarni kabila boshliklari va boshka zodagon misrliklar uzlariga olishar edi. Asirlarni “Tirik murdalar” deb atashar edi. Tirik murdalar Misrda kullar sinfini xosil kilishdi. Er.avv. IV ming yillikda Misrda kuldorlik tuzumi vujudga kelgan edi. Zodagon va badavlat kishilar kullar va dexkonlarni itoatda saklash uchun doimo kabila boshliklaridan yordam kutganlar. Zuravonlik bilan orttirilgan boylik kabila boshliklariga nazoratchi sokchi va jangchilar bulinmasini yollash imkoniyatini bergan. Boshliklar yz kabilalarining tula konli xukumdorlari bulib koldilar va barcha ishlarni xal etdilar. Er. av IV ming yillikda Misrda davlatlar vujudga keldi. Dastlab Misrda 42 ta davlat tashkil topgan bulib, ularni misrliklar *senat* yunonlar *nom* deb atashgan. Davlatlar jang bilan bir-birini bosib olishi natijasida ikkita: Misrning shimolidagi del`tada va janubdagi Nil vodiysida yirik davlatlar vujudga kelgan. Xukumdorlar “lodshoch” deb atala boshlagan. Misr janubidagi Nubiya davlatibilan chegaradosh misrliklar bu erdan 11il buylab oltin, katron, fil suyagi, nodir navli yogochlar olib ketishgan. Sinay yarim orolidan mis kazib olinar edi. Falastin va Suriyadan mis, temir na boshka metallar olib kelingan. Misr xukumdorlari xukumronligi davri bir necha davrlarga bulinadi:

1. Misrni birlashtirib 1-2 sulolaga asos solgan xukumdor Mina (Mines) xisoblanardi. Bu sulolalar xukumronlik qilgan davr esa "Ilk podsholik davri" deb atalib miloddan avvalgi 3100-2800 yillarni uz ichiga oladi. Podsho Mina uz poytaxtini Del`ta yaqinida bunyod etgan bulib, uni Memfis - "Xekau Ptax" deb (ya`ni "Ptax "(Xudo) ruxining kal`asi degan nomining buzib aytilganidir) atagan. Misrliklar uz vatanlarini "kora tuprok", yunonlar esa bu mamlakatni "egipet" deb atashgan. Misrliklar uz podsholarini xudolarga tenglashtirganlar, uni tirik xudo deb bilganlar. Shuning uchun xam u yashagan kasirni "Buyuk uy" ya`ni "Pera`o" deb ataganlar. Shundan kelib chikkan xolda, ikkinchi sulola davridan boshlab podsho *Fir`avn* deb atala boshlagan.

2. Qadimgi podsholik 3-10 sulolalar xukumronligini uz ichiga olib, ular mil. avv. 2800-2250 yillarda xukumronlik qilganlar. Uchunchi suloladavridan piramidalar kurish boshlangan. Joser piramidasi zinapoya shaklida kurilgan. Yigirma turt xarfdan iborat alifbo vujudga kelgan. Turtinchi sulola vakili Snofru oltinga boy Nubiyani bosib olgan. Xufu - exromlar bunyod etgan. 9-10 sulolalar asoschisi Gerakle -Opol` podshosi Xeti I dir.

3. O`rta podsholik davri er.avv. 2050-1750 yillarni uz ichiga olib bu davrda 11-13 sulolalar xukumronlik qilganlar. Shoduf kashf etilgan. Fiva xukumdori Mantu-Xatter 11 sulolaga asos solgan. Bu sulola davrida Sinay yarim oroli bosib olingan bu sulolalar xuukumronligining oxirlarida tarixda birinchi marta mil. avv. 1750 yilda kambagallar va kullar kuzgalon kutarib davlatni bosib olganlar. Bu "*Ipuser suzlari*" da bayon etiladi. Kuzgalonchilar 14 sulolaga asos solganlar. Mil. avv. 1710 yilda Misrni Yamxadning (Suriya) janubidan kelgan Geksoslar bosib olib mil. avv. 1580 yilgacha, ya`ni 130 yilga yaqin hukmronlik qilganlar va 15-16 sulolaga asos solganlar. Asosiy shaxarlar Del`ta yaqinidagi *Avaris* bulib xukmdorlari Xian davrida kudratlarining yukori chukkisiga erishganlar. Geksoslar uzlarini "*chullarning xukmdorlari* " deb ataganlar. Misrliklar ulardan jang aravalarda jang qilishni urganganlar.

Geksoslarni Misrdan kuvib chikarish kurashini 17 sulola vakili Kamesu boshlagan bulib, uning vorisi 18 sulola asoschisi Yaxmos I geksoslarni Misrdan

quvib chiqarib, Avarisni vayron etgan. Bu sulola vakili Amenxatep IV Amonga emas, Atonga (quyosh xudosi) siginishni joriy etib, Axetaton shaxrini bunyod etgan. Bu shaxar xukmdorlari uzlarini *Exnaton "Auyoshugyai"* deb atagan. Bu sulola vakillaridan yana biri Tutanxamondir. 19 sulola asoschisi Xoremxab Amenxatep IV ning ayollaridan biri xokimiyatni bosib olgan va Amonga siginishni tiklagan. Xoremxeb Tutmos II ni uzining ota - bobolarining otasi deb atagan. Bu sulola vakillari Ramzes I, Seti I, Ramzes II, Bu davrda Boshvazir Misrda kishlok xujaligini boshkargan. Bu davrda Xetlar bilan Old Osiyo uchun kurashlar davom etgan.

Mil. avv. 1280 yilda Ramzes II Xet podshosi Xettusi III bilan tinchlik shartnomasini tuzgan. Bu shartnomaga mingta Xett va mingta Misr xudolari garov kilib kuyilgan. Shartnomaga binoan Suriyaning janubi, Falastin va Finikiya soxillari Misrga utgan. Shartnoma Misr va Akkad tillarida yozilgan.

4. Mil. avv. 1584 - 1085 yillardagi 18 - 19 sulolalar xukmronligi davri deb ataldi. Tutmos III Falastinni bosib olgan.

5. So`nggi podsholik davri mil.avv. 1085 yildan III asrgacha davom etgan bulib, bu davrda 20-30 sulolalar xukmronlik kilgan. Mil. avv. I ming yilliklarda Misr kuchsizlanib, uzini zurga ximoya kiladigan davlatga aylangan. Buning sababi dexkonlarning xonavayron bulishi, buysundirilgan xalklarning kuzgolonlaridir. Natijada Misr Osiyo va Nubiyadagi erlarni boy berdi. Mil. avv. VII asr da Misr yana yagona davlatga birlashdi, iktisodiy va ma`daniy yuksalish boshlangan.

So`nggi podsholik davrida Misrda kuyidagi sulolalar xukmronlik qilganlar:

20 - *sulola asoschisi Setiaxt;*

21 -*II - Tanis Smendes;*

22 - *liviyalik Shashonik;*

23 - *Peshubastis;*

24 - *Bekxoris (er. av 721 - 715);*

25 - *Efiop Shabaka;*

26 - *Sais sulolasi Psamptix I*. Shu sulola vakili Nexo finikiyaliklardan Afrika kit`asini aylanib chikishlarini suragan.

27 - *sulola asoschisi Axamoniylar hukmdori Kambiz II* mil.avv. 526 yil Misrni bosib olgan. 27 - 30 sulola vakillari Misrni mustaxkamligi uchun kurashgan. Ossuriya mil. avv. 671 yildan mil. avv. 655 yilgacha, ya`ni 16 yil Misr ustidan hukmronlik qilgan. Misr hukmdorlari 3 sulola davridan boshlab *podsho kudrati* belgisi sifatida exromlar ko`ra boshlaganlar. Eng katta exrom bundan 2600 yilcha burun Memfis yaqinida fir`avn Xeops uchun qurilgan. Bu exromning balandligi 147 metrni tashkil etadi. Kurshi uchun 2 mln. 500 mingta tosh ketgan. Piramidalar firavnlarni dafn etadigan joy bo`lgan, Eng mashhur piramidalar Giza shaxri yaqinida uch fir`avn - Xufa, Xafra va Menkaura uchun qurilgan. Bular 7 mu`jizaning biri bo`lib, Piramidalardan saqlanib qolgani shulardir. Shuning uchun xam misrliklar: xamma narsa vaqtdan vaqtka piramidalardan kurkadi deyishadi. Xufu exromiga ishlatilgan toshlarning eng kattasi 15 tonna, eng kichigi esa 2,5 tonna kelar edi. Ni birinchi exrom mil. avv. 2800 yilda fir`avn Joserga atab qurilgan U zinapoya shaklida bulgan. Piramida toshlari orasidagi yorik - 0,5 mm dan oshmaydi. Xeops exromi qurilishini tarixchi Gerodot xikoya qilgan, exrom 30 yil davomida qurilgan. Exromlar yaqinida butun bir koyadan *Sfinks sher boshli*, juda katta xaykal uyib ishlangan. Xaykalning balandligi 20 metrdan oshadi. Uni "*dahshat opiki*" deb atashgan. Piramida ichiga tosh tobut -*sarkofag* kuyilgan.

1.3. QADIMGI PODSHOLIK DAVRIDA MISR

Qadimgi podsholik davrini o`rganishda avval bu davrni turtta davrga bo`lish kerak:

1. Qadimgi podsholik.
2. O`rta podsholik.
3. Yangi podsholik.
4. Keyingi podsholik.

Qadimgi podsholik davrida Misr tarixining xarakterli tomonlaridan "biri

bu erda keyingi paleolit davridan boshlangan, ya'ni ikki daryo oraligidan bir oz oldinroq Misrda sulolalar davri boshlanmasdan oldin urug`doshlik munosabatlari mavjud bo`lgan, ya'ni Misrda mulkiy tabaqalanish mavjud bo`lgan. Bu biz quyidagilardan izlashimiz mumkin.

1. Idishlardagi tamgalardan.
2. Xaykalchalar.
3. Qullar tasviri.
4. Mehnat turlarining mavjudligi.

Demak, yuqoridagi ijtimoiy munosabatlardan ko`rinib turibdiki. Misrda urug` qabilachilikdan davlat tuzumiga o`tish alomatlar mavjud bo`lgan.¹

Davlat tuzumiga o`tish davrida oid iboralar: Senat, oqsaqol, nomarx kabi iboralarning borligi Misrda Qadimda boshqaruv ancha murakkab bosqichlarni bosib yotganligini anglab olish mumkin. Bu erda qadimgi podsholik davriga oid muxim manbalarni yoddan chiqarmaslik kerak. Masalan, Janub va yuqori Misr podsholiklari mavjud bo`lib ular o`rtasidagi kurash tafsilotlari tufayli yuqori Misr podsholigining kuchli davlat tuzumiga imkoniyatlari yuqori bo`lganligini ko`rishimiz mumkin.

Oqibatda taxminan 3000 yillikda poytaxti Abidas bulgan podshosi Mina raxbarligida yuqori Misr podsholigi yuzaga keldi. Manbalar bo'yicha aytadigan bo`lsak, bu ikki sulola davrida Misr tarixida ilk podsholik davri nomi bilan yuritiladi.²

Qariyb 200 yillik tarixini o`z ichiga olgan bu davrda Misr tarixida boshqaruv ko`p tarmoqli mansablardan iborat bo`lgan tashkilotlar orqali boshqarildi. Ilk podsholik davri xo`jaligini quyidagi tarmoqlarga bo`lish mumkin:

1. Texnik ekinlar.
2. Poliz ekinlari.

1 Струве. Истрия древнего Востока М -1949 год. 141-148 б.

2 Кузишина А. Истрия древнего Востока М-1988 год. 88-96 б.

3. Nil tuprogining unumdorligi.

Misrda sulolalar boshqaruvi taxminan 3000 ming yil avval boshlangan ayniqsa, 3 sulola vakili Joser davri 4 sulola davri Snofru to`g`risida ularni faoliyatini o`rganish maqsadida muvofiqdir.

Misr tarixida piramidalar qurish ayniqsa, 4 sulola davridan boshlab detsentrilizatsiya protsessi boshlandi. Ya'ni er mill. av XXII asrdan boshlab Misr bir-biri bilan urush qilib turadigan mayda davlatlarga bo`linib ketish sabab va oqibatlarini o`rganish lozim.

Keyinchalik qudratli Misr mustabid podsholarining mablag`lari tugugan buning ustiga podsholarning maqbaralariga xaddan tashqari ko`p kuch va mablag` sarf qilinaverishi umumiy norozilik tug`dirgan. Shuning uchun firavnlarning keyingi piramidalar xajm jihatidan oddiyroq qilib quriladigan bo`lgan.

Kishilik jamiyati va davlatlarning er yuzida paydo bo`lishida Nilning ahamiyati yuksakdir. Bu o`lkada kishilik jamiyatining ertaroq yuzaga kelishi, qadigi Misrliklarning o`z yo`lini belgilab olishiga yordam berdi. Xech bir davlat Misr o`lkasi kabi ko`p ming yillikka ega bo`lgan tarixga ega emas. Misrliklar yuqori darajadagi sivilizatsiyani yuzaga keeltirdilar va unig ta'siri old Osiyo Attik Gretsiya xalqlari tarixida muxim o`rin tutgan.¹

O`rta va yangi podsholik davrida Misr.

Misrdagi dastlabki siyosiy tarqoqlik. XI-sulola davrida Misr. Ushbu savolni yoritishda Qadimgi Misr mavzusidagi tarixiy jarayonlarni to`ldirgan holda Misrning O`rta podsholik davriga o`tish jarayonini taxlil qilib chiqishimiz lozim. Demak salkam ikki asrni o`z ichiga olgan Misrda siyosiy tarqoqlikni ya'ni XXIII-XXI asrlarni o`z ichiga olgan davr hisoblanadi. Bu siyosiy tarqoqlik davrida Misrda deyarli qishloq xo`jalik sistemasi, siyosiy boshqaruv to`liq izdan chiqqanligi bilan Harakterlanadi. Ayniqsa Qadimgi podsholik davrining poytaxti xisoblangan Memfis to`liq inqirozga yuz to`tdi. Aniqroq qilib aytadigan bo`lsak Qadimgi podsholik davri sulolalaridan bo`lgan sakkizinchi sulola vakillari

¹ Редер Д. История древнего мира М.-1985 год. 66-77 б

mamlakatni boshqara olmay qoldilar. Natijada Misrda siyosiy kurash jarayoni boshlandi. Bu siyosiy kurash jarayonida mamlakatning yuqori qismida joylashgan Gerekleopol va mamlakatni janubida joylashgan Fiva o`rtasida jang boshlanib ketdi. Har ikkala sulolalar ham o`z kurashishlari bilan Harakatlarini boshlab yubordilar. Bu vaqtda yuqori Misrda faoliyat ko`rsatgan IX-X sulolalar xukmronligi davrida Gerekleopol boshqaruvini ko`p o`lkalar tan olganligi ma'lum. Ayniqsa yuqori Misr podsholaridan hisoblangan podsho Axton III va uning merosxo`riga yozgan nasixatnomasi saqlanib qolgan. Unda aytilishicha amaldorlarni himoya qilinishi va oddiy xalq esa buning aksi ekanligini ko`rish mumkin. Har ikkala sulola davrida Misr mayda nomlarga bo`linib ketgan edi. Bu Misrning siyosiy tarqoqlik davrini boshdan kechirayotganligidan darak beradigan masalalar hisoblanadi.

Mamlakat janubida faoliyat ko`rsatayotgan 8 ta nomlarga bo`linib ketgan hamda XI-sulola nomi bilan xukmronlik kilayotgan poytaxti Fiva bo`lgan janubliklar yagona xukmronlik uchun yuqori Misrliklar bilan to`qnashishga majbur bo`ldilar.

X-XI sulolalar o`rtasidagi to`qnashuvdan so`ng XI - sulola vakillari g`olib chiqdilar. Demak XI - sulolalar vakillari mamlakatni birlashtirgan Fivaliklar xukmronligi boshlandi. Dastlabki Fivaning podshosining nomi Mentuxatep bo`lib, ana shu davrdan boshlab taxminan 2050-1700 yillarni o`z ichiga olgan XI-XIII - sulolar o`z ichiga olgan o`rta podsholik davri boshlanadi.¹

O`rta podsholik davrida Misrning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti.

Ushbu mavzuni yoritishda Misrni ichki imkoniyatlarini ko`rsatib o`tishdan boshlash kerak ayniqsa ishchi kuchi unumdor erlarni birinchi, bronzaning xayotga tadbik etilishi oqibatida o`rta podsholik davrida ma'lum darajada rivojlandi. Misrni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi mis kurollarni paydo bo`lishi muxim o`rin to`tishi ayniqsa mis quollar, pluglar qo`l tegirmoni, shisha buyumlar o`z ahamiyati bilan Misr tarixida muxim o`rin tutadi. Misrni

¹ Кузишина А. Истрия древнего Востока М-1988 год. 88-96 б.

ichki va tashki savdosini aloxida kurib o`tishimiz kerak. Shu davrda Misrliklar Qrim o`lkasi bilan savdosi ayniqsa bu davrda Misrga naqshinkor sopol buyumlar va boshqa zebu-ziynatlar keltirilgan. Osiyo mamlakatlaridan kumush va kumush maxsulotlari keltirildi natijada ishlab chiqarish hamda savdoni o`sishi tufayli ayirboshlash kuchaydi hamda mulkiy tabaqalanish yuzaga keldi.¹

Fuqarolar o`rtasida mulkiy tabaqalanish shu tariqa yuzaga keldi: Sababi o`rta Misrliklar ham o`z qullariga ega bo`lishgan yozma manbalarda aytilishicha oddiy zargarlar ham o`zlari haqida ma'lumotlar qoldirishgan. O`rta podsholik davrida o`rta tabaqa vakillari ham zodogonlar darajasiga ko'tarildilar. Ikkinchi tomondan qashshoqlashgan toifa vakillari yuzaga keldi. "Podsho qullari" nomi bilan yuritildi ularni toifalash paytda bu terminga e'tibor berganda "Podsho qullari" oddiy qullardan farq qilgani ishlab chiqarish vaqtlari qullar ishlash evaziga ozik-ovqat olishgan. Misr tarixida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot keyingi sulolalar davrida ham shu tariqa rivojlanib bordi. Natijada qullarni endi xadya etish darajasida olib kelindi va ulardan turli maqsadlarda foydalanishganlar

O`rta podsholikning iqtisodiy jihatdan gullab yashnashi va siyosiy qudrati avjiga chiqqan davr XII sulola xukumronlik qilgan davrdir . XII sulolaga asos solgan Amenemxet I mamlakatni birligini mustaxkamlash yuzasidan bir qancha choralar ko`rgan. Chunonchi, Amenemxet I o`zidan oldin nizolar tufayli nomlar o`rtasida tuzilgan chegaralarni tiklagan va shimoliy viloyatlar ustidan nazorat qilib turish uchun o`zining rasmiy poytaxti Fiva bilan bir qatorda yuqori Misr bilan Quyi Misr chegarasida o`zi qurdirgan Ittaui qal'asini o`ziga rezydensiya qilib olgan edi.

O`rta podsholik fir'avnlari XII sulola xukumronligining oxirlarida Amenemxet xukumronligidagina xokimiyatning markazlashishi kuchayib, nomarxlarning imtiyozlari biroz pasaygan edi. Xuddi shu fir'avn zamonida Fayum vohasida irrigatsiya qurilishlari kengaytirilgan, bunda barcha xudolarga sig`inish uchun katta ibodatxona qurilgan. U ibodatxonani greklar Labirint deb

¹ Струве. Истрия древнего Востока М -1949 год. 4-12 б.

ataganlar. Afsuski u ibodatxonani qoldiqlari saqlanmagan.¹

Navbatdagi XIII sulola davrida yana tushkunlik va uzaro urushlar boshlangan. Keyin qurilish ishlari to`xtagan edi. O`nlab podsho almashingan, biri taxtdan tushib, o`rniga ikkinchisi o`tirgan. Mamlakatni larzaga keltirgan ijtimoiy-noroziliklarning naqadar chuqur bo`lganligini biz badiiy adabiyot yodgorligi bo`lmish «Ipuser» so`zlaridan bilamiz. Bu asarning aftori xalq ommasiga nafrat bilan qaragan katta mansabdor shaxs bo`lgan.

Bundan quldorlik davlati tag-tugi bilan larzaga keltirilgan ekan degan taassurot tug`iladi.

Misrga ko`chmanchilar hujumi.

O`rta podsholikni yaxshi rivojlangan davri asosan 12 - sulola davriga to`g`ri keladi. Yani bu davr 2000-1880 yillarni o`z ichiga oladi. 12 - sulola vakillaridan bo`lgan Senusert III mamlakatni mustaxkamladi. Ichki nizolarni bartaraf etdi. Bu davr podsholari boylik orttirish maqsadida chekka o`lkalarga yurish ham qilishgan. Jumladan. Fir'avn Senusert III davrida Falastin o`lkasiga ammo manbalardagi ma'lumotlarga ko`ra fir'avnlr o`zlaricha mustaqil fikr yuritish darajasida bo`lmaganlar. Buni biz ulkan xazinadan erkin ravishda mablag sarflash imkoniga ega bo`lmaganliklaridan ko`rishimiz mumkin. Chunki bu davrda qurilgan imorat va piramidalar oddiy toshlardan hamda murakkab qilib qurilmagan. Bu davrda Misrda ko`plab qullar ko`zgonlari bo`lib o`tgan. Jumladan, tarixiy manbalarda qayd etilmagan bo`lmasada badiiy adabiyot yodgorligi butun Ipuser so`z nomli 13-sulola davridagi qullar ko`zgoni to`g`risida ma'lumotlar mavjud.

Va nixoyat Misr tarixida aloxida o`rin tutgan ko`chmanchilar hujumi davri taxminan 1700 yildan boshlab o`lkaga ko`chmanchi giksoslar ular asosan Falastin Suriya cho`llaridan kirib kelishgan, ular Misrga kirib kelib harbiy-ma'muriy boshqaruvni yo`q qildilar. Giksoslar Misrga boshqaruv til va madaniyatni o`zlari bilan olib kelganlar. Balki Misrnikini o`zlashtirganlar. Faqat ular harbiy qurollarni o`zlari bilan olib kelganlar. Giksoklar o`zlariga mustaqil

1 Редер Д. История древнего мира М.-1985 год. 45-56 б

Avaris shaxrini qurdilar. Shu erdan turib, Misrni boshqardilar hamda qolgan Misr erlaridan xiroj olganlar. Giksoslar faoliyatida Misrda taxminan yuz yilgacha davom etgan bo`lib, 21 asrdan boshlab. giksoslarga qarshi kurash boshlandi. 17 sulolal vakili Kames boshchiligida boshlangan ammo geksoslarni mamlakatdan xaydab chiqarilishi Fiva podshosi Yaxmos bilan boglikdir.

Shu davrdan e'tiboran Misr tarixida besh asrdan ko`proq taxminan 1584-1071 yillarni o`z ichiga olgan, yangi podsholik davri boshlangan.

Boshqaruv tartiblari.

Misrni qo`shni davlatlar bilan munosabatlari. Yangi podsholik davrida Misrning siyosiy axvoli.

Yangi podsholik davrida boshlab ya'ni ko`chmanchi giksoslar ustidan g'alabadan so'ng misr tarixida 5 asr davom etgan yangi podsholik davri boshlandi. Shu davrdan boshlab misrni qo`shni davlatlar aloqalari ancha yahshilandi. Ayniqsa iqtisodiy sohadagi ishlarni oladigan bo`lsak, mis qurollarini takomillashuvi uni ishlatish va etishtirishi masalasi mis maxsulotlari asosan Kichik Osiyodan keltirildi. Natijada ichki va tashki savdo ma'lum darajada ortib bordi. Mamlakatlar o`rtasidagi munosabatlarni, ayniqsa savdo munosabatlarni ortishida qullarni roli beqiyos baland bo`lgan. erlarni taqsimlanishi hamda uning ichki tartiblari barcha o`lkalarda bo`lgani kabi sinfiy harakterga ega bo`lgan. Istilochilik va savdo-sotiqning tezlashuvi mulkiy tabaqalanishga hamda Misr podsholarining ko`plab yurtlarga boylik orttirish maqsadida qilgan istilochilik yurishlarini aytib utishimiz mumkin.

Ayniqsa, ayol podsho xisoblangan Xatshepsut davrida xarbiy yurishlar deyarli bo`lmagan. Aksincha savdo munosabatlari qo`shni davlatlar bilan doimiy bo`lib turgan, jumladan Punt o`lkasi bilan savdo qilingan u erdan qurilish materiallar va qimmatbaxo buyumlar olib kelingan.

Qolgan Misr fir'anvlari Tutmos III va uning vorisi Amenxotep 3 davrlari da ko`plab o`lkalarga istilochilik yurishlari qilingan. Va nixoyat Misrni siysiy birlashuvida muxim jarayon xisoblangan Amenxotep IV davrida diniy isloxatlar ham misr tarixida o`z o`rniga ega. U Exnaton nomi bilan siyyosat yurgizib.

mahalliy xudolarga e'tiqod qilishni taqiqlab quydi. Va Misrni siyosiy birlashuviga harakat qildi. Keyingi voqealar tafsiloti shundan iboratki. Urushlar tufayli Misr Xett bilan munosabati Ramzes II ning Xettlar bilan olib borgan urushi tufayli munosabati yomonlashdi. Ramzesning ulimidan so'ng mamlakatda sinfiy kurash keskinlashdi.

Misrga yana ko'chmanchilar hujumi qayta boshlandi. Ammo hujumlarni qaytarishini iloji yo'q edi.

So'nggi podsholik davrida Misrda siyosiy tarqoqlik kuchaygan bo'lib. Ruxoniylar boshqaruvda yagona xukmronlik qilish uchun o'zlari boshqaruvni sulolaviy tarzda davom etkazmoqchi bo'ldilar. Bundan tashqari ruxoniylar chet ellik yollanma kuchlar yordamida ularga turli lavozimlarni taqdim etib, mamlakatni boshqardilar. 10 asrdan e'tiboran Liviyaliklardan xisoblangan Shishonka o'z qo'shinlari bilan Misrga kelib 22 sulolani boshqaruviga asos soldilar. Keyingi 23-24 sulolalar davrida Misr yana mayda davlatlarga bo'linib ketdi. Mamlakat iqtisodi ogirlashdi. Bundan foydalangan Efiopiyaliklar 8-7 asrlarda podsho Pianxi davrida xokimiyatga keldilar va mamlakatni boshqardilar.

Lekin Efiopiyaliklar boshqaruvi davrida Misrda Ossurlar istilosi 'am bo'lgan. 8 asrda Har ikkala davlat o'rtasidagi kelishmovchilik bo'lib turardi. Bundan shimoliy Misrliklar ya'ni Sais vakillari foydalanib, xokimiyatni qo'lga oldilar. Psammetix 7 asrda Ossurlarning axvolining og'irligidan foydalanib mamlakatdan ularni quvib chiqdi va 26 sulolaga asos soldilar.

Psammetix misr iqtisodiyotini qayta tikladi. Aniqsa uning o'gli Nexo davrida Old Osiyoga hujumlar qildi. Lekin imkoniyat etarli emas edi. 559 yil g'alayondan so'ng, Misrda davlat to'ntarishi yuz berishi sarkardalardan bo'lgan Yaxmos-II xokimiyatni qo'lga oldi. Oradan biroz o'tgach, 525 yili Osiyoning kuchli davlati bo'lgan Eronliklar Pelusiya jangidan sung Misrni egalladilar va Misr o'z mustaq illigini yo'qotdi.

Bu davrda Misrdagi ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar ya'ni quldorlik jamiyatidagi qarama-qarshiliklarnig yuzaga kelish sabablari taxlil etildi.

Xukmron siflar boshqaruvida bo`lgan jamiyatdagi siyosiy xayot, xo`jalik boshqaruvi, mulklarning bo`linish tartiblari va diniy munosabatlar ayrim jixatlari ko`p xollarda old Osiyo davlatlari o`z faoliyatini shakllantirishda keng foydalanishiga xizmat qilgan.¹

1.4. QADIMGI MISR MADANIYATI

Kishilik jamiyatining ilk madaniyat markazi Misrdir. (Din, san'at, adabiyot, xaykaltaroshlik, yozuv, dunyoviy bilimlar).

Qadimgi Misr kishilik madaniyatining eng Qadimgi markazlaridan biri hisoblanadi. Qadimgi Misrliklar bundan 6-7 ming yillar muqaddam jaxonda birinchilardan yuksak madaniyat yaratgan Nil tufayli Misr erlarini unumdorligini Qadimgi zamonlardan oq kishilarning sun'iy sugorish tarmoqlari kanallar, to'gonlar, dambalar, mushang, shaduf va charxpalaklarning kashf etib, ulardan foydalandilar. Misrliklar Qadim zamonlardan oq loydan, sopoldan buyumlar yasashgan Miloddan avval 6-9 ming yilliklardayoq dunyodagi eng qadimgi yozuvlar, dastlabki ilmiy bilimlar, ko`p bo`lgan.

O`sha davr talabidan kelib chiqib, xat yozuvga extiyoj kuchaygan Qadimgi Misr yozuvining shakllanishi miloddan avval 4 ming yillikka to`g`ri keladi Misrliklarning eng Qadimgi yozuvlari rasmlar shaklida bo`lib, ierogliflar deb atalgan. Bu yozuv 750 taga yaqin belgi rasmlar misrliklar yozish uchun dastlab tosh, sopol buyumlar va boshqalardai foydalanganlar. Yozuv san`ati Misrda Narmer davrida, balki undan ham ilgari yaratildi. Misrda yozuv majburiy ravishda arxivlarni saqlash, ayniqsa, xalqdan soliq olish jarayonida dunyoga keldi.

Dastlabki yozuvlar faqat rasmlarda ifodalanib, ular erkakni, ayolni, sigirni, qo`shni va boshqa buyumlarni aks ettirgai. Sonlar esa chiziqlarda ko`rsatilgan. Keyinchalik rasmlar yoki belgilar buyum yoki narsalarni emas, balki so`z, ovozni ham bildirgan. Misrliklar yozuvda fonetikani qo`llaganlar.

¹ Korovkin F.P. Kadimgi dunyo tarixi. -T .: "Ukituvchi", 1993.

Demak, aytiladigan soʻzlar ana shu belgilarga qarab ijro etilgan. Yunonlar bu belgilarni ierogliflar, yaʼni «muqaddas belgilar» deb ataganlar, chunki ular bu belgilarni mutlaqo tushunmaganlar. Kizigʻi shundaki, misrliklar undosh tovushlarnigina ishlatganlar.

Maktubning umumiy shakli oʻquvchiga uning mazmunini aniqlab bergan.

Hozirgi zamon kishisi qadimgi Misr yozuv sanʼatini shunchaki bir oddiy narsa deb aytolmaydi, albatta. Shuning uchun ham arxeolog olimlar hanuzgacha toʻliq tushunarli boʻlmagan bu «muqaddas» belgilarni yoki ierogliflarni oʻqish uchun juda koʻp vaqt sarf qilganlar.

Dastlab belgilar loydan ishlangan idishlarda tasvirlangan. Keyinchalik misrliklar Nil qirgʻoqlarida oʻsadigan «papyrus» oʻsimligidan yozuv qogʻozni kashf qilganlar.

Misrda raqs juda erta taraqqiy etgan. Uyin va raqs qadimgi Misr sanʼatining ajralmas qismi edi.¹

Misrda drama ham opera ham tashkil topgan edi. Ibodatxonalarda diniy dramalar qoʻyilgan. Xususan, teatrlarda "Osirisning oʻlimi" va «Qayta tirilish» drammalari nomoyish etilgan. Qadimgi Misr adabiyoti bundan 706 ming yil ilgari vujudga kelgan. Oʻrta podsholik davrida adabiyot juda yuksalgan. Masalan: «Xalokatga uchragan kema» haqida xikoya, "Senuxet" xikoyasi kabi ajoyib ertaklarni yaratganlar.

Misrda xaykaltaroshlik va rassomlik rivoj topgan. Misr xaykaltaroshlari Firʼavn, amaldor, malika, ruxoniylar, mirzalar va oddiy kishilarning xaykallarini toshdan oʻyib ishlaganlar. Bu jixatdan amaldor Rexenin, Mirzo, podshoga tanish Nefereti, Amenemxet, Tutanhamon, shuningdek, Ramzes V larning haykallari ayniqsa diqqatga sozovordir. Eng muxtasham ibodatxonalar Yangi podsholik davrida qurila boshlagan. Fivadagi gʻoyat katta ustunli zallar, ochiq ustunli xovlilar boʻlgan Luksor va Karnak ibodatxonalari ajoyib inshootlardir. Ibodatxonalarga kiraverishda mustaxkam minor (pilon) lar tiklangan, minorlar roʻparasiga sfinkslar (firavnlarning donishmandligi va qudratinig ramzi boʻlgan

1 Кузишина А. Истрия древнего Востока М-1988 год

odam boshli arslonlar) alleyasi solingan. Ibadatxonalarning devorlari rangdor suratlar (turli rangga bo`yalgan bo`rtma suratlar) va ierogliflar yozuvlar bilan qoplagan.¹

Xaykaltaroshlik va rassomlikda (Ikkidaryo oralig`idagi singari) shartlilik seziladi. Qadimgi misrliklarga bu tabiiy bo`lib ko`ringan. Fir'avn va katta mansabdorlarni maxobatli, xarakatsiz ulug`vor, vazmin, salobatli, tishinig oqini zo`rba-zo`r ko`rsatadigan kishilar qilib tasvirlanganlar. Ba'zan juda extiyotkorlik bilan xar kimning o`ziga xos xislatlarini ko`rsatganlar, ammo shunda ham Biron bir nuqsonini ko`rsatmaganlar.

Oddiy kishilarni (dexqonlar, podachilar va Ayniqsa ajnabiylar, masalan: zanjilar va osiyoliklarni xiyla tabiiy tasvirlaganlar. Ularni tasvirlashda hatto karikaturaga ham yo`l qo`yilgan (semiz va oriq podachi va boshqalar).

Kadimgi Misrliklar bizga xalq ertaklari va xaqiqiy voqealardan iborat juda ko`p badiiy adabiyot asarlarini bizga qoldirgan. Masalan “Halokatga maxkum shaxzoda” xaqida ertak “to`g`ri bilan egri” haqida ertak va boshqalarni aytib o`tishimiz lozim.

Misrning madaniyat sohasida erishgan yutuqlari tashqi dunyoga ta'sir ko`rstib bizga etib kelgan. Gerodot misrliklarni xaqli ravishda geometriya ustozlari deb atagan.²

Qadimgi Misr jaxon tarixida birinchilardan bo`lib, ko`p qabilalar qo`shiluvidan iborat bo`lgan davlatni yuzaga keltira oldilar. Ayniqsa 16-15 asrlarda Misr imperiya shakliga ega bo`ldi. Bu davrda Misr xalqi madaniyatning barcha soxalarida – adabiyot san'at, xaykaltaroshlik va din soxasida erishgan yutuqlari o`zining takrorlanmas jixatlari bilan jaxon madaniyatining durdonasi bo`lib uning bo`linmas bir qismi bo`lib qoldi.

Insoniyat tarixida ilk tsivilizatsiyalar paydo bo`lganiga 6 ming yildan oshdi. SHunday tsivilizatsiyalarning eng qadimgilari Misr va ikki daryo oralig`i Mesopotamiyada vujudga kelgan. Avvalo bular ibtidoiy jamoa tuzumida

1 Матъев М. Э. Искусство Древнего Египта. М., 1970.

2 Струве. Истроия древнего Востока М -1949 год.

yaratilgan moddiy va madaniy madaniyat yutuqlarini o'zida aks ettirgan tarzda taraqqiyotning davomi bo'lgan. Ikkinchi tomondan, bu yerlarning iqlimi qulay. Yeri unumdor bo'lganligidan sug'orma dehqonchilik tez rivojlanib borgan.

Qadimgi Misr madaniyati er. avv. IV ming yillikdan er. avv. 332 yilgacha davrni o'z ichiga oladi. U o'ziga xos xususiyatlarni, ya'ni yozuvi, adabiyoti san'ati, arxitektra qurilishi bilan ajralib turadi.

Qadimgi Misr ilk tsivilizatsiya o'choqlaridan biri sifatida o'ziga xos betakrorligi bilan ajralib turadi. U Afrikaning shimoli-sharqida joylashgan. Nil dunyodagi eng katta daryolardan biri bo'lib, u Markaziy Afrikadan boshlanib, Misrni kesib o'tib, O'rta yer dengiziga quyiladi. Misrda ilk dehqonchilikning paydo bo'lishi ham eng avvalo shu daryo bilan bog'liq bo'lgan. Qadimdan Misrda tabiati issiq, hayvonot, o'simlik dunyosi va yer osti boyliklari ko'p bo'lganligi bois bu yerda moddiy va ma'naviy madaniyat juda erta vujudga kelib rivojlangan. Misrda davlatning paydo bo'lishi mil. av. IV ming yillikning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrlarda Nil daryosining shimolida va janubida 40 dan ortiq shahar davlatlari – nomlari paydo bo'lgan. Nomlarni monarxlar boshqarib, ular dehqonchilik, chorvachilik, sug'orish, harbiy va diniy ishlarni boshqarganlar. Bular ilk quldorlik davlatlari edilar. Bu davlatchalarning shimoliy va janubiy birlashmalari vujudga keladi. Mil.avv. III minginchi yil boshlarida Janub podshosi Minaning SHimoliy uyushma ustidan g'alaba qilishi natijasida yagona Misr davlatiga asos solinadi. Uning poytaxti Memfis shahri bo'lgan.

O'zining Vatan tarixini yozgan kohin Manefon qadimgi Misr tarixini to'rtga bo'lib: Qadimgi (mil avv. 3 minginchi yil), O'rta (mil.avv. 3 minginchi yil oxiri – 2 minginchi yil boshlari), Yangi (mil. avv.2 minginchi yil), Quyi (mil. Avv. 1 minginchi y.) podsholik davrlariga bo'ladi. Bu davrlar jami 30 ta firavnlr sulolarini o'z ichiga oladi.

Qadimgi Misr dunyo tsivilizatsiyasining tom ma'nodagi klassik namunasi bo'lgan. SHuning uchun ham qadimgi yunon tarixchisi Gerodot bu mamlakatni «Nilning in'omi» deb bejiz aytmagan. Bahor oylarida Nil toshqini natijasida

daryo bo'ylaridagi yerlarida hosil bo'lgan qora mineralga boy qoldiqlar dehqonchilik uchun «tekin ozuqa» bo'lib xizmat qilgan. Daryo bo'ylarida turli xil granit, marmar kabi toshlarning bo'lishi esa qurilishga yaxshi material hisoblangan.

Misr tarixining barcha davrlarida hayvonlar, tabiat hodisalari va otabobolar ruhiga e'tiqod qilish keng tarqalgan. SHu bilan birga Misrda yagona davlatning vujudga kelishi bilan firavn-podsholarga e'tiqod qilish va ularni ilohiylashtirish paydo bo'lgan. Birinchi o'rinda qarchig'ay boshli quyosh xudosi – Ra yoki Amon-Ra bo'lib, u har kuni oltin qayiqchasida osmonni kezib chiqadi va g'arbgga tushadi (misrliklar tasavvurida). Misrliklar Quyosh xudosisiga atab ibodatxonalar qurganlar.

Xudolar ichida Osiris alohida o'rin tutadi. U avval dehqonchilik xomiysi bo'lib, eshak boshli, qizil ko'zli yovuz xudo Set tomonidan o'ldirilgan. Osiris narigi dunyodagi podsholikda shoh va sudya bo'lib oladi. Xudolar misrliklar uchun birgina dunyoni yaratuvchi bo'libgina, qolmay, xunarmandchilik, san'at, yozuv, hisob, sehrgarlik va ilm-fanning yaratuvchilari ham hisoblangan. Ular ieroglif yozuvini «Xudoning so'zi» deb tushunar edilar. Bunda so'z va hisob hukmroni, yozuvni yaratuvchisi, adabiyot va yozuvchilarning, sehrgarlar va tabiblarning homiysi Totu hisoblangan.

Misrda xudolarga sig'inish bilan birga podshoh-firavnlarga sig'inish ham alohida o'rin tutgan. Misrliklar Firavnni yerdagi xudo deb hisoblashar, shuning uchun ularga atab Piramidalar qurishgan, ularning nomlarini abadiylashtirishganlar.

Qadimgi podsholik davrida papyrus qog'ozining tayyorlanishi yozma madaniyatning rivojlantirishga olib kelgan bo'lsa, Misrda mis davrida birinchi bo'lib asalarichilikning kashf qilinishi va yoyilishi ham dunyoviy ahamiyatga ega bo'ldi. SHu bilan birga shu davrda dehqonchilik, bog'dorchilik, polizchilik va uzumchilik rivojlangan.

Qadimgi Misr podsholigi davrida yetakchi madaniyat yo'nalishi – bu arxitektura bo'lib, u boshqa madaniyat turlari bilan uyg'unlikda rivojlandi.

Birinchi piramida arxitektor Imxotep loyihasi asosida Fiza va Joserga atab Sakkarada (Mil. avv. 3 ming yillikda) qurilgan bo'lib, u bo'yi 60 m., pillapoya shaklida qurilgan. Imxotep birinchi arxitektor bo'libgina qolmay, ayni choqda olim, yozuvchi, tabib ham edi. Vafotidan keyin unga atab ibodatxonalar qurilgan. Ikkinchisi Dashurda qurilgan Snofru piramidasi to'rtburchakli shaklida bo'lib, uning bo'yi 100 m. edi. Gizadagi firavn Xufu maqbarasi-piramidasi o'zining ulug'vorligi bilan ajralib turadi. Xufu (yunoncha Xeops) maqbarasining bo'yi 150 m. (hozir 146 m.), egallagan joyi 52,900 m.kv. bo'lib, uning qurilishiga og'irligi 2-15 tonnalik 2 mln. 300 mingta tarashlangan tosh ishlatilgan. Piramida 30 yil ichida qurilgan. Xufu piramidasi olamning yetti mu'jzasining biri hisoblanadi. Gizada qurilgan ulkan sfinks (57m.) Xafra sher surati tarzda bo'lib, o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Xammasi bo'lib 80 ga yaqin piramidalar qurilgan. Piramidalar Qadimgi Misrning o'ziga xos ramziga aylangan.

Piramidalar qurilishi qadimgi Misr uchun qimmatga tushgan va Misr iqtisodini izdan chiqara boshlagan. Shu sababli firavnlarni miloddan avvalgi 17 asrdan e'tiboran piramidalar qurishgan voz kechganlar.¹

Arxitektura bilan birgalikda haykaltaroshlik namunalari ham yaratilgan. Bu jumlasiga firavn Narmer (bo'yi-64 sm.), «Qishloq oqsoqoli», «Mirzo Kan», «SHahzoda Raxotep va uning rafiqasi Nofret» kabi toshdan yasalgan haykalchalarni nisbat berish mumkin.

Haykaltaroshlik san'ati Misrda qadimgi podsholik davridayoq yuksak darajada bo'lgan.

Kimmatbaho diorit toshidan yasalgan va hozirgi kunda Qohira muzeyida saqlanayotgan Xefrenning bosh haykali dunyodagi eng nodir asarlaridan biridir.

Bu haykal asarda firavning boshi bilan elkasi tasvirlangan. Uning yasama sochi, orqasidagi homiysi xudo lochin Xoryusning qanotlari orasiga yashiringan. Portretida birorta keraksiz egri, ortiqcha chiziqlarni topish qiyin. U

¹ Ткачев В. Н. История архитектуры. М., 1987.

yuksak darajada mahorat bilan ishlangan. Bu darhaqiqat, qudratli siymo. Savlatli elkalar haqiqatan ham shohlarga xos buyuklikni sezdirib turadi. U ham shoh, ham xudo hisoblangan.

Qadimgi podsholik davridagi haykallarning ko`pchiligi shunga o`xshash sifatga ega bo`lgan. Keyingi sulolalar davrida san`at ko`proq vatanparvarlik yo`nalishida bo`lgani bilan u hoch qachon qadimgi podsholik davridagi singari ta`sirchanlik darajasiga ko`tarilgan emas. Bu ajoyib haykallarni inson o`z ko`zi bilap ko`rish sharafiga ega bo`lmaganligi bizga g`alati tuyuladi. Shubhasiz buning sababi bor. Jahon muzeylariga qo`yilgan bu noyob asarlarning ko`pchiligi, ya`ni haykal «Ka» dastlab mastabalarining er osti xonalariga yashiringan. Odatda misrliklar o`lgan kishining ruhi, ya`ni Ka oziq-ovqatlar, sovg`alar olishiga, hatto xushbo`y narsalar – Fimiamaning hidlarini sezishi mumkinligiga ishonganlar. Shuning uchun ham fir`avanning jasaki qo`yilgan xonada uning siymosini tasvirlovchi haykal o`rnatilgan. Haykalning ichida esa uning ruhi Ka yashagan. Haykalning qarama-qarshi tomonidagi devorda teshik bo`lib, ruh ana shu teshikdan oziq-ovqatlar olib turgan.

Aslida esa ovqatlarni ruhlar nomidan kashishlar olganlar va ularni ovqatlantirib turganlar. Shu boisdan, inson qo`li bilan yaratilgan haykallar inson ko`zidan g`oyib bo`lgan.

O`rta podsholik, yoki boshqacha qilib aytganda klassik qurollar yasashda bronzadan keng foydalana boshlagan. Oyna ishlab chiqarish yulga qo`yiladi. Qadimgi ayniqsa o`rta podsholik davrida matematika sohasida katta yutuqlarga erishilgan. Jumladan, sanoq tizimi kashf etilgan. Misr yozuvida 1, 10, 100, 1000, 10000, 100000, hatto millionni ham bildiruvchi alohida belgilar bo`lgan. Misr astronomlari yulduzlar, sayyoralar harakatini o`rganib, birinchi yulduzlar osmoni xaritasini tuzganlar. SHunday xaritalar Senmut maqbarasi, Edfu va Dendir ibodatxona-larining shiplarida saqlanib qolgan. Misr astronomlari dunyoda birinchi bo`lib alohida taqvim tuzganlar. Unga ko`ra bir yil 365 kunni tashkil qilib, u 12 oyga bo`linadi. har oy 30 kundan iboorat bo`lgan qolgan 5 kunni esa bayram qilishgan. Qum va suyuq soatlari ham dastlab Misrda kashf

etilgan.

Misrda tibbiyot ham erta rivojlangan. Mil. avv. 3600 yilda Memfisda afsonaviy tabib Imxoteb sharafiga maxsus ibodatxona qurilib, u yerda bemorlarga yordam ko'rsatilgan. Geliopolis va Sais shaharlarida tabiblar tayyorlaydigan maxsus maktablar bo'lgan. Tibbiyotga bag'ishlangan asarlar yaratilgan. Tabiblar mumiyolash jarayonida inson a'zolarining ichki tuzilishini yaxshi bilganlar. Ular, bemorlarni davolashda terapiya, jarrohlik, ruhiy ta'sir qilish usullarini qo'llashgan. Misrda Georg, Zbers, Zdvin, Smit, Brugsha, Zravistrat, Xerofil kabi mashhur hakimlar shuhrat topgan.

Qadimgi misrliklar geografiya fani sohasida ham dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lganlar. Qadimgi Misr geograflari o'z o'lkalari va Arabiston yarim orolining xaritasini chizganlar. Ularning Arabiston cho'llaridagi oltin konlari joylashgan rayonning xaritasi hozirgacha saqlanib qolgan.

O'rta podsholik davrida adabiyot juda rivojlangan. Bu davrda juda ko'p qo'shiq, ertak va maqollar yaratilgan. O'sha davrda «Ikki og'a-ini haqida», «To'g'ri va egri haqida», «Izida va Osiris haqida» ertaklar, «Sor va Set janjali» nomli afsonalar juda mashhur bo'lgan.

Dunyoda birinchi bo'lib Misrda teatr kashf qilingan. Ibodatxonalarda diniy dramalar qo'yilgan. Xususan, teatrlarda Osirisning o'limi va qayta tirilishi ko'rinishlari ijro etilgan.

Yangi podsholik davri Qadimgi Misr tarixida moddiy va ma'naviy rivojlanishning eng cho'qqisi hisoblanadi. Bu davrda misrliklar temirdan foydalanishga o'tganlar, to'qimachilik dastgohini kashf qilgan, yilqichilikni (otlar) o'zlashtirganlar. CHig'irini va sharufni kashf etilishi, polizchilik va bog'dorchilikning rivojlanishiga olib kelgan. Xullas, bu davrda mamlakat iqtisodi tez o'sadi. Bu esa jamiyatning boy tabaqasining yanada boyishiga va san'atning rivojlanishi olib keladi.

Yangi podsholik davrida Misrda firavn Tutmos I davridan boshlab «Podsholar vodiysida» firavnlarni o'zlariga mahobatli va labirintli maqbaralarni, haykallarni qurdiradilar. Bularga Amenxoteb 3 va Abusimbedagi Ramzes II

g'orli maqbaralari haykallari misol bo'la oladi. Ayniqsa, Fivada qurilgan Karnak va Luksor maqbaralari arxitektor Ineni boshchiligida qurilgan bo'lib, bu yirik arxitektura majmui qurilishida baland ustunlar ishlatilgan.

Bu davrda ko'p janrli adabiyot ham rivojlandi. Diniy «Marhumlar kitobi», realizm ruhida «Ikki og'a-ini haqida ertak», sevgi haqida «Yurakni rohatlantiruvchi qo'shiq» kabi asarlar yuzaga keldi.

Tasviriy san'at va haykaltaroshlikda firavnlarning turmush tarzini aks ettiruvchi asarlar yaratildi. Haykaltarosh Tutmos tomonidan yaratilgan firavn Exnaton va uning rafiqasi Nefertiti asarlari o'zining betakrorligi, go'zalligi bilan kishilarni hayratga soladi. 1992 yili topilgan Tutanxamon maqbarasidagi (yagona to'la saqlanib qolgan) Misr madaniyatiga taalluqli ko'plab qimmatli yodgorliklar ichida firavnning mashhur oltindan qilingan niqobi ham bor.

Quyi Misr podsholigi davrida Misr inqiroz jarayonini boshidan kechirdi. Yagona Misr avval ikkiga, so'ngra mayda nomlarga (davlatchalarga) bo'linib ketadi. Misr avval Numibiya, Ossuriya, Eron ta'siriga tushib qoladi va nihoyat, mil.avv. 332 yili Aleksandr Makedonskiy tomonidan egallandi. SHu bilan Misrning qadimgi davri tugaydi.

Qadimgi Misr Madaniyatiga kelsak, u hozirga qadar ham yashab kelmoqda. Bu madaniyat jahon madaniyati hisobiga ham katta hissa qo'shdi. SHuning uchun ham Yunon faylasufi Aflotun Misr madaniyatini «Jami tsivilizatsiyalarning onasi» deb bejiz aytmagan.

II-BOB: Jahon tarixi darslarida «Qadimgi Misr» mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish:

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo`lishining sababalaridan biri, shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchi-talablarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rganilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganishlariga, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Shuning uchun ta`lim muassasalarida zamonaviy o`qitish metodlari, interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir.¹

Zamonaviy metodlar yoki interfaol usullar, o`qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o`quvchi talabalarda mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, etuk mutaxassis bo`lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo`lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Biz quyidagi o`qitish jarayonida qo`llash mumkin bo`lgan ba`zi bir treninglar (texnologiyalar)ga tavsifnoma berib, ba`zilarni o`tkazish tartibi to`g`risida metodik tavsiyanoma berib o`tamiz.

“Qadimgi Misr tarixi” mavzusini o`qitishda “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Zinama - zina” , “Tushunchalar tahlili” , “Idrok Xaritasi” va “B/B/B texnologiyasi” metodlari qo`llanildi.

¹ Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. /Учебное пособие для студентов педагогических вузов и системы повышения квалификации педагогических кадров. М.: Издательский центр “Академия”, 2000.

Aqliy hujum

Aqliy hujum - g`oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy hujum» metodi biror muammoni echishda talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to`plab, ular orqali ma`lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy hujum metodining yozma va og`zaki shakllari mavjud. Og`zaki shaklida o`qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalarning har biri o`z fikrini og`zaki bildiradi. Talabalarda o`z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talabalar o`z javoblarini qog`oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko`rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy hujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma`lum belgilar bo`yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to`g`ri va ijobiy qo`llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o`rgatadi.

Aqliy hujum metodidan foydalanilganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo`ladi, shu jumladan, talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalar o`z fikrini faqat og`zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko`nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi talabalarda turli g`oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.¹

«Tarmoqlar» (Klaster) metodi

Bu usulning ma`nosi – fikrlarning tarmoqlanishi. «Klaster» texnologiyasi – pedagogik strategiya bo`lib, u talabalarga har bir mavzuni chuqur o`rganishlarida yordam beradi. Talabalarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ket uzviy bog`langan holda tarmoqlashlariga o`rgatadi. Bu usul mavzuni chuqur o`rganishdan avval

¹ Iskandarov E.A., Suyunov O. Pedagogik texnologiyalar va ulardan ijtimoiy - iqtisodiy fanlarni o`qitishda foydalanish (O`quv-uslubiy qo`llanma), Samarqand, 2012 yil, 19 bet.

talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o`tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda talabalarni shu mavzu bo`yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

«Zinama - zina» texnologiyasi

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg`ulot talaba (yoki o`quvchi)larni o`tilgan yoki o`tilishi kerak bo`lgan mavzu bo`yicha yakka va kichik jamoa bo`lib fikrlash hamda xotirlash, o`zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to`plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko`rinishida ifodalay olishga o`rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o`quvchi)lar bilan yakka holda yoki guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o`tkaziladi va taqdimot qilinadi.

«Tushunchalar tahlili» ta`lim texnologiyasi

Ta`lim texnologiyasining mohiyati. Ushbu ta`lim texnologiyasi o`tilgan (chorak, semestr yoki yilida tugagan) predmeti yoki bo`lim barcha mavzularini talaba (yoki o`quvchi)lar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo`yicha o`qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o`z izohlarini berish, shu orqali o`z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o`qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talaba (yoki o`quvchi)larni baholay olishga yunaltirilgan.¹

"Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" metodi

Ushbu metod o`quvchi –talabalarga muayyan mavzular bo`yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo`llash jarayonida o`quvchi – talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg`ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko`rinishda tashkil etilishi mumkin:


¹ Iskandarov E.A., Suyunov O. Pedagogik texnologiyalar va ulardan ijtimoiy - iqtisodiy fanlarni o`qitishda foydalanish (O`quv-uslubiy qo`llanma), Samarqand, 2012 yil, 57 bet.

1) har bir guruh umumiy sxema asosida o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg`ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo`yicha umumlashtiriladi;

2) guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo`yicha o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O`quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog`ozida o`z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim



Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya`ni:

1. O`quvchi–talabalarning o`rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo`yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

2. O`quvchi–talabalarning mavzu bo`yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo`lgan ehtiyojlari o`rganiladi.

3. O`quvchi–talabalarni mavzuga oid ma`lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.

Bosqichlar bo`yicha amalga oshirilgan harakatlarning to`liq tafsiloti quyidagicha:

- o`quvchi – talabalar guruhlariga birlashtiriladi;
- o`quvchi–talabalarning yangi mavzu bo`yicha tushunchalarga egalik darajasi o`rganiladi;
- o`quvchi–talabalar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;
- o`quvchi–talabalarning yangi mavzu bo`yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo`lgan ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo`yiladi;
- o`qituvchi o`quvchi-talabalarni yangi mavzuga oid umumiy ma`lumotlar bilan tanishtiradi;

- o`quvchi-talabalar o`zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi;
- bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo`-yiladi;
- mashg`ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi.¹

2.1. QADIMGI MISR MAVZUSINI O`RGANISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH.

Kichik guruhlarda ishlash metodi

Kichik guruhlarda ishlash talabalarning darsda faolligini ta`minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, auditoriyada bir-biridan o`rganishga imkoni tug`iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o`rgatadi.

Qo`llanish usuli.

1. Faoliyatni tanlash. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada talabalar uni o`rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko`rsatishlari zarur bo`ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2. Zaruriy asos yaratish. Talabalar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo`yicha ba`zi bilim, ko`nikma va malakalarni oldindan egallagan bo`lishlari kerak.

3. Guruhni shakllantirish. Odatda har bir guruhda 3-5 talaba bo`ladi (ehtimol, kam yoki ko`p bo`lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishili guruh tuzilgani ma`qul. Guruh o`lchovi masalaning muhimligi, auditoriyadagi talabalar soni, talabalarning bir-biri bilan konstruktiv holatda o`zaro harakatiga bog`liq holda o`zgaradi. Eng yaxshisi, “getrogen” guruh tashkil etishidir (jinsi, o`zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash talabalar o`rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi (misol uchun, bir talaba munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o`taydi va hokazo). Auditoriyani guruhlarga ajratish, hoxish bo`yicha yoki hisob bo`yicha amalga oshiriladi.

¹ Yo`ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O`quv qo`llanma.-T, 2009, 217-218 bet.

4. Aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish. Talabalarga faoliyatni bajarish bo'yicha aniq va hajm jihatdan ko'p bo'lmagan tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarining ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta'minlanadi. Talabalar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib etganligi tekshirib ko'riladi.

5. Qo'llab quvvatlash va yo'naltirish. O'qituvchi zarurat tug'lsa, guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlarga tazyiq o'tkazilmaydi.

6. Muhokama qilish va baholash. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo'yicha axborot beradilar. Buning uchun har bir guruh o'z sardo -rini belgilaydi. Zarurat tug'lsa, faoliyat natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan yozilib boriladi. Muhimi, guruh echimining asoslanishini aniqlashtirib olish. Agar vaqt etarlicha bo'lsa, u yoki bu fikrni argumentlashda guruhlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

Ushbu metod qo'llanilganda talaba kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda o'qituvchi boshqa noan'anaviy metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha talabalarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

Guruhda ishlash qoidalari

- Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.
- Har kim faol, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.
- Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.
- Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

- Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.
- Har kim «boshqalarga o`rgatib, o`zimiz o`rganamiz» shioriga to`la rioya qilishi shart.

Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o`qitish mazmunini yaxshi o`zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko`nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha talabalar jalb etiladi;
- o`z-o`zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo`ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- kuchsiz talabalar bo`lganligi sababli kuchli talabalarning ham past baho olish ehtimoli bor;

- barcha talabalarni nazorat qilish imkoniyati past bo`ladi;
- guruhlararo o`zaro salbiy raqobatlar paydo bo`lib qolishi mumkin.
- guruh ichida o`zaro nizo paydo bo`lishi mumkin.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodini qo`llash bosqichlari:

1. Faoliyat yo`nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog`liq bo`lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Talabalar guruhlarga 3-5 kishidan bo`linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. O`qituvchi tomonidan aniq ko`rsatmalar beriladi va o`qituvchi tomonidan yo`naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

Biz quyida guruhlarni kichik guruhlarga bo`lib dars o`tish uslubini qo`llash orqali o`tkazilgan dars ishlanmasini keltiramiz.

«Qadimgi Misr» mavzusini o`rganishda pedagogik texnologiyadan foydalanish.

Mashg`ulot rejasi

1. Darsning tashkiliy va yo`naltiruvchi qismi 5 daqiqa
2. Aqliy hujum 10 daqiqa
3. Kichik ma`ruza 20 daqiqa
4. Kichik guruhlarda ishlash metodi 40 daqiqa
5. Darsning yakuni 10 daqiqa

1. Biz bu darsda “aqliy hujum”, ya`ni “breynstorming” usulidan foydalanamiz. Buning uchun doska uchta qismga bo`lib qo`yiladi:

"Fir'avn" so`zining manosi.	"Misr" nomlarining vujudga kelishi.	"Quyi va yuqori Misrning" birlashuvi

Shu tarzda guruh a`zolarini ham uch guruhga bo`lamiz. Birinchi guruhga birinchi ustunni to`ldirish, uchinchi guruhga uchinchi ustunni to`ldirish vazifasi beriladi. Shuning uchun tahlil asosida ikkinchi guruhga ikkinchi ustunni, 3 chisiga uchinchi ustunni to`ldirish vazifasi beriladi. Dars boshidagi aqliy hujum metodi orqali o`tkazilgan mashq talabalar fikrini mavzuga yo`naltiradi, ularning dastlabki tushunchalari qay darajada ekanligi, mavzuni yoritishda nimalarga e`tibor berish kerakligi haqida o`qituvchi qimmatli ma`lumotlar oladi. Darsning ikkinchi bosqichida quyidagi reja bo`yicha 20 daqiqalik kichik ma`ruzada pedagog yangi mavzuning asosiy mazmunini yoritib o`tadi.

Tayanch ibora va tushunchalar:

"Fir'avn" so`zining manosi. "Misr" nomlarining vujudga kelishi. "Quyi va yuqori Misrning" birlashuvi, "Piramida va exromlar tarixi", "Dinastiyalarga o`tish davri". Yozma manbalar, xalq ogzaki ijodi namunalari, Tutmos III

an'analari, dinastiyalar, nomlar, exromlar, El-amarna manzilgoxi, Misr piramidalarini tarixi. Amon, aton xudolari, Isida, va diniy isloxotlar, Kopte yozuvi, Ipuser so`zi, senusert estaliklari, exromlar, oy kalendarlar.

Darsning keyingi bosqichida talabalar 3 ta kichik guruhga bo`linadi, har bir guruhga topshiriqlar va tarqatma materiallar berilib, ular bu o`quv didaktik materialni o`zlashtirib boshqalarga tushintirish uchun taqdimot tayyorlashlar zarurligi haqida ko`rsatma beriladi. Har bir guruhga taqdimot tayyorlash uchun 20 daqiqa vaqt va tarqatma didaktik materiallar beriladi.

1- guruh uchun topshiriq.

Sanani top:

1	Misrning forslar tomonidan bosib olinishi
2	Misrda yagona davlatning shakllanishi
3	Misrda Xeops piramidasining kurilishi
4	Fir`avn Tutmosa 3 ning boskinchiligi
5	Ossuriya Misr ustidan hukmronlik kilganligi
6	

Sanani top.


To`gri javoblari

1	Misrning forslar tomonidan bosib olinishi	Mil. avv.525 y.
2	Misrda yagona davlatning shakllanishi	Mil. avv. 3000 y.
3	Misrda Xeops piramidasining kurilishi	Mil. avv. 2600 y.
4	Fir`avn Tutmosa 3 ning boskinchiligi	Mil. avv.1500 y.
5	Ossuriya Misr ustidan hukmronlik kilganligi	Mil. avv. 671 y 655 yilgacha
6		

2- guruh uchun topshiriq:

Qadimgi Misr ijtimoiy qatlamlarini jadvalda keltiring:


To`gri javoblari



3- guruh uchun topshiriq.

Qadimgi Misr davrlari.


“Zinama - zina” usulidan foydalanib, jadvalni to`ldiring:



Guruh a`zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki o`quv chizma) ko`rinishida ifoda etadilar. Bunda a`zolari kichik mavzu bo`yicha imkon boricha to`laroq ma`lumot berishlari kerak bo`ladi.

Qadimgi Misr davrlari.

To`gri javoblari




2. O`quv topshiriq:


«Klaster» texnologiyasining qoidasi bilan tanishadi va berilgan vazifani bajaradi.

«Klaster» texnologiyasining qoidasi:

- «Klaster» – parchalanish, maydalanish ma`nosini anglatadi.
- Mavzudan chiqqan va chiqmagan holda so`z o`zagining ma`no mazmunini davom ettiramiz. So`zlar tarmoqlanadi.
- «Klaster» uslubi darsning bir qismida (boshida, o`rtasida, oxirida) qo`llaniladi.
- Guruxlarga bir xil savol berilsa, tarmoq bajarilgandan so`ng bir xil terminlar o`chiriladi, kimda o`chirilmagan terminlar ko`p qolsa, o`sha gruppaga g`olib xisoblanadi.
- O`qituvchi o`z variantiga ega bo`lishi kerak.
- So`zlarning klassifikatsiyasi ro`y bermasligi kerak.

«Klaster» uchun vazifa: **Qadimgi Misr** podsholiklari.





3. O`quv topshiriq:

«Tushunchalar tahlili» texnologiyasi

Mashg`ulotni o`tkazish tartibi:

- talaba (yoki o`quvchi)larni guruhlariga (sharoitga karab) ajratadi;
- talaba (yoki o`quvchi)lar mashg`ulotni o`tkazishga qo`yilgan talab qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a`zolariga tarqatiladi.
- talaba (yoki o`quvchi)lar yakka tartibda o`tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo`yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- talaba (yoki o`quvchi)lar tarqatma materialda mavzu bo`yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o`zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo`lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- o`qituvchi tarqatma materialda mavzu bo`yicha berilgan tushunchalarni o`qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to`g`ri izoxni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo`lsa) tanishtiriladi;
- har bir talaba (yoki o`quvchi) to`g`ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarni aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo`ladilar, o`z-o`zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

«Tushunchalar tahlili» uslubidan bir darsning o`zida dars boshlanishida o`tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo`yicha talaba (yoki o`quvchi)larning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egalaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin.¹

Quyidagi mashg`ulotda foydalaniladigan tarqatma materialni misol

¹ Iskandarov E.A., Suyunov O. Pedagogik texnologiyalar va ulardan ijtimoiy - iqtisodiy fanlarni o`qitishda foydalanish (O`quv-uslubiy qo`llanma), Samarqand, 2012 yil, 57 bet.

tariqasida keltiramiz (ilova).

«Tushunchalar tahlili» texnologiyasi

Tushunchalar	Mazmuni
Abu-Simbel	
Assuan	
Aleksandriya	
Imxotep -	
Anubis	
Kanopa	
Katakomblar	
Mastaba	
Memfis	
Mo`miyolash bo`ktirish.	
Nomlar	
Piramida	
Sarkofag	
Sfinks	

To`gri javoblari
«Tushunchalar tahlili» texnologiyasi

Tushunchalar	Mazmuni
Abu-Simbel	- Nildagi ikkinchi sharsharaning quyi oqimida joylashgan manzara. Bu erda Ramzes II qurdirgan 2 ta qasr bor.
Assuan	- Nil daryosining birinchi sharshara yaqiniga joylashgan shahar. 1967 yilda bu erda suv ombori qurilgan. Aholisi 48.000 kishi.
Aleksandriya	- Makedoniyalik Aleksandr Nil del`tasida qurdirgan shahar.
Imxotep -	Me`mor, Joser ehromining muallifi. Qadimgi Misr yozuvining asoschisi. Shoh saroyidagi barcha ishlarning boshqaruvchisi. Keyinchalik u xudo Ptaxning o`g`li sifatida ilohiylashtirilgan.
Kanopa	- O`lgan odamning ichki a`zolarini saqlaydigan idish.
Katakombalar	- Qadimgi Misrda mo`miyolarni saqlaydigan er osti xonalari.
Mastaba	- Qabr ustiga ishlangan trapetsiya shaklidagi sag`ana.
Memfis	- Nil del`tasining yuqori oqimida joylashgan shahar. Qadimgi podsholik davlatining poytaxti.
Mo`miyolash bo`ktirish.	- O`lgan kishi tanasini chirishdan saqlash maqsadida maxsus tayyorlangan qorishmaga
Nomlar	- Nil daryosi bo`yida dastlab vujudga kelgan viloyatlar.
Piramida	- Ehrom. Qadimgi podsholik davridagi shoh qabri. Ularning bir guruhi (Xeops, Xefren, Mikaren) Gizada topilgan.
Sarkofag	- Tosh, metall yoki yog`ochdan bezaklar bilan ishlangan ulug`vor tobut.
Sfinks	- Tanasi sher, boshi odam qiyofasidagi ajib mahluq. Balandligi 17 metr, uzunligi 39 metrga teng bo`lgan sfinks Gizada topilgan.

2.2. QADIMGI MISR MADANIYATINI O`RGANISHNING USULLARI

«Idrok Xaritasi» (Aloqa Diagrammasi)

Fikrlash jarayonining umumiy tizimini jadval yordamida shakllantirish

Maqsad:

1. Vizual
2. O`y-fikrlar va g`oyalarni saralash, tashkillashtirish va qayta tashkil etish
3. Axborotlarni tahlil qilish qurilishi, (aniqlash), belgilangan joylarning o`z-aro bog`lanishini aniqlash
4. Bilimlarni boshqarish tizimini yaxshilash
5. Axborotlarni etkazishning yanada ilg`or usuli
6. Axborotlarni boshqarishni yanada ilg`orlashtirish

Usullar:


- Belgi, tariflash, esda saqlash
- Aqliy hujum, ijodiy fikrlashning yuzaga chiqishi
- O`y-fikrlarni aniqlashtirish, xulosa
- Tavsif
- Taqdimot

Qo`llanilishi:

- Rejalashtirish
- Muammoning tahlili va echimi
- Birgalikda ishlash (Timbilding)
- Kichraytirish yoki kattalashtirish
- Qismlarni optimallashtirish
- Kommunikatsiya (aloqa)








Qadimgi Misr madaniyati

Idrok Xaritasi










1. Misrliklarning xudolar turlarini aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.

1) Isida; 2) Ra; 3) Amon; 4) Anubis; 5) Ptax; 6) Osiris; 7) Set

						
?	?	?	?	?	?	?

1. Misrliklarning xudolari turlarini aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.


1) Isida; 2) Ra; 3) Amon; 4) Anubis; 5) Ptax; 6) Osiris; 7) Set

						
2	3	6	1	7	5	4

2- gurux uchun topshiriq:


1. Misrliklarning xudolar turlarini aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.

- 1) Xatxor ; 2) Maat; 3) Tot - oy; 4) Amon; 5) Sebek; 6) Anubis; 7) Sexmet



1. Misrliklarning xudolar turlarini aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.

- 1) Xatxo ; 2) Maat; 3) Tot - oy; 4) Amon; 5) Sebek; 6) Anubis; 7) Sexmet



«Tushunchalar tahlili» texnologiyasi

MISR XUDOLARI	MAZMUNI

«Tushunchalar tahlili» texnologiyasi

To`gri javoblari

MISR XUDOLARI	MAZMUNI
Xamxor	Musikat guzallik va ishts.iloxasi.
Anibis	Marxumlar va mumielar raxnamosi. (Tulki kiyofasida)
Maat -	Adolat va adliya iloxasi.
Tot - oy	Donishmandlik va tebiblik xudosi.
Osiris xudo	Misrliklarga dexkonchilikni urgatgan
Amoy - Ra	Kuyosh xudosi
Xapi	Nil xudosi
Set	Osirisning birodari omadsizlik, saxro va buron xudosi

“Qadimgi Misr” mavzusiga “BBB” jadvali metodini qoʻllash


Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim

B/B/B texnologiyasi

B/B/B jadvali bilan ishlash jarayonining ketma-ketligi

B/B/B texnologiyasi

B/B/B jadvali bilan ishlash jarayonining ketma-ketligi



B/B/B - texnikasini qoʻllash qoidasi

1. Inset texnikasini qoʻllab matnni oʻqib chiqing.
2. Olingan natijani yakka holda sistemali ravishda jadvalda belgilab chiqing.¹

¹ Sh. Shodmonova. N. Tilabova. «Tarbiyaviy ishlar uslubiyati.» kursi boʻyicha tarbiya texnologiyasi: Uslubiy qoʻllanma / «Iqtisodiy tarbiyadagi oʻqitish texnologiyasi» seriyasidan. -T.: TDIU, 2006 – 220. 112 bet.

B/B/B jadvali

№	Mavzu savollari	Bilaman	Bilishni hoxlayman	Bilib oldim
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>
1	Qadimgi Misrning dastlabki poytaxti?			
2	Exnaton davriga oid qancha xujjat topilgan?			
3	Misr firavnlari to`g`risida qaysi tarixiy ma'lumotlar bor?			
4	Qaysi sulola davrida Misr yagona bo`lib birlashdi?			
5	Misr tarixini nechta manbaga bo`lib urganiladi?			
6	Misr haqida ma'lumot bergan "Geografiya" asari kimning asari?			
7	Xufu piramidasi qaysi dinastiya davrida qurilgan?			
8	Siyosiy tarqoqlik qaysi dinastiya davridan boshlangan?			
9	Misr tarixi nechta davrga bo`linadi?			
10	Misrning nomlar(o`lkalar)ga bo`linib ketishi qaysi davrni o`z ichiga oladi?			
11	O`rta podsholik davri necha asr davom etgan			
12	1280 yilda misr tarixida qanday voqea yuz berdi?			
13	Misrda yangi podsholik kachon tugadi?.			
14	Mashxur Tutanhamon maqbarasini topgan ingliz arxeologi ?			
15	Misrga qachon Eronliklar bostirib kirdilar?			

Amaliy mashg`ulotni o`qitish texnologiyasi

Talabalar soni: 20-30	Vaqt: 2 soat.
O`quv mashg`ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan amaliy mashg`ulot
Amaliy mashg`ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Manbalar, tabiiy sharoit, aholisi. 2. Davlatning paydo bo`lishi. 3. Qadimgi Misr podsholiklari. 4. Qadimgi Misr madaniyati.
O`quv mashg`ulotining maqsadi	Misr tarixini manbalar asosida yoritib berish. i ko`rsatib berishdan iborat.Mamlakatning yuqori va janubida joylashgan sulolalar kurashi moxiyati va oqibatlarini ochib berish. Qadimgi Misr madaniyati nafaqat Yaqin sharqda balki jahon sivilizatsiyasida tutgan o`rnini ko`rsatib berishi
Pedagogik vazifa:	O`quv faoliyatining natijasi:
<ol style="list-style-type: none"> 1. Misr tarixini manbalar asosida yoritib berish. 2. Davlatning paydo bo`lishi moxiyatini ko`rsatib berish 3. Qadimgi Misr podsholiklari asoslarini yoritib berish. 4. Qadimgi Misr madaniyati bilan tanishtirish. 	<ul style="list-style-type: none"> • Misr tarixini manbalar asosida aytib beradilar • Davlatning paydo bo`lishini aytib beradilar. • Qadimgi Misr podsholiklarini tushuntirib bera oladilar. • Qadimgi Misr madaniyatini aytib beradilar.
O`qitish usullari va texnika	Amaliy mashg`ulot, bir-biridan o`rganish usuli; Aqliy hujum, klaster, Zinama - zina, Tushunchalar tahlili, Idrok Xaritasi, BBB texnikasi
O`qitish vositalari	Darslik, komp`yuter texnologiyasi, slaydlar, grafikli organayzer
O`qitish shakli	«Taqdimot», «Loyiha», «guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo`linib ishlash».
O`qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalar bilan ta`minlangan, o`qitish usullarini qo`llash mumkin bo`lgan o`quv xona.
Monitoring va baholash	Kuzatish, og`zaki nazorat, yozma nazorat, savol-javobli so`rov, o`quv topshiriq, test.

Amaliy mashg`ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	o`qituvchi	talaba
<p>1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)</p>	<p>1.1. O`quv mashg`ulotining mavzusini, maqsadini, o`tkazish tartibini e`lon qiladi.</p> <p>1.2. "Qadimgi Misr tarixi" mavzusi bo`yicha talabalarning bilimlarini faollashtirish maqsadida blits-so`rov o`tkazadi.</p> <p>1. Qadimgi Misrning dastlabki poytaxti?</p> <p>2. Exnaton davriga oid qancha hujjat topilgan?</p> <p>3. Misr firavnlari to`g`risida qaysi tarixiy ma'lumotlar bor?</p> <p>4. Qaysi sulola davrida Misr yagona bo`lib birlashdi?</p> <p>5. Misr tarixini nechta manbaga bo`lib urganiladi?</p> <p>6. Misr haqida ma'lumot bergan "Geografiya" asari kimning asari?</p> <p>7. Xufu piramidasi qaysi dinastiya davrida qurilgan?</p> <p>8. 1280 yilda misr tarixida qanday voqea yuz berdi?.</p> <p>2. Misrda yangi podsholik kachon tugadi?.</p> <p>Javoblarni aniqlashtiradi, xatolarni to`g`rilaydi, xulosalaydi.</p> <p>1.3. Mavzu bo`yicha tayanch iboralar va amaliy mashg`ulot mavzusi, rejasiga izoh beriladi (1-Ilova).</p> <p>1.4. Mashg`ulotni o`tkazish shakli va baholash mezonlarini e`lon qiladi.</p>	<p>Tinglaydi.</p> <p>Savollarga javob beradi.</p>
<p>2-bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)</p>	<p>2.1 Qadimgi Misr tarixi.</p> <p>«loyixa» texnologiyasi asosida organayzerlarda ishlab chiqishni tashkil etadi (2-Ilova).</p> <p>O`qituvchi talabalarga murojaat qiladi va eng to`g`ri javoblar hamda fikrlarni qayd qiladi.</p> <p>2.2 Talabalarni guruxlarga bo`lish orqali amaliy mashg`ulotn tashkil etadi.</p> <p>O`qituvchi talabalarga murojaat qiladi va eng to`g`ri javoblar hamda fikrlarni qayd</p>	<p>Topshiriqni bajarishda "Loyiha" ketma-ketligini tuzadi va organayzerlarni to`ldiradi.</p> <p>Kichik guruxga bo`linib birgalikda aniq qo`yilgan masalani, ma`lum</p>

	qiladi.	belgilangan vaqt ichida o`zaro fikr almashish, muloqot qilish orqali echishadi
3-bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzuda qo`yilgan savollar va ularning yoritilganiga o`qituvchi yakun yasaydi (xulosa qiladi), aytilmagan tomonlari ustida ishlash lozimligini aytadi. 3.2. Guruxlarga o`zaro baholash natijalarini e`lon qiladi. 3.3 O`z-o`zini nazorat qilish uchun savollar beriladi. Kelgusi mavzu e`lon qilinadi va seminarga tayyorlanib kelishni aytadi (4-Ilova).	Tinglaydi, yozadi va mustaqil ishlash uchun topshiriqqa tayyorlanadi.

O`quv mashg`uloti

1- topshiriq. Qadimgi Misr.

“Aqliy hujum” usulidan foydalanib, doskadagi jadvalni to`ldiring:

"Fir'avn" so`zining manosi.	"Misr" nomlarining vujudga kelishi.	"Quy va yuqori Misrning" birlashuvi

2-topshiriq. Guruhni to`rtta guruhchaga bo`lib, klaster tuzish taklif etiladi.

1. Qadimgi podsholik.
2. O`rta podsholik.
3. Yangi podsholik.
4. Keyingi podsholik.

3-topshiriq.

“Zinama - zina” usulidan foydalanib Qadimgi Misr davrlari jadvalini to`ldirish taklif etiladi.

4-topshiriq.

Bilimlarni sinash testi. “BBB”, (B–bilardim B– bilmoqchiman; B–bilib oldim) jadvalini to`ldirish taklif etiladi.

B – bilardim	B – bilmoqchiman	B – bilib oldim

Guruh natijalarini baholash kriteriyalari








Kriteriyalar	Ballarda	Foizda	Natijalar bahosi				
			1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh	5-guruh
Ma`lumotlar to`liqligi	0.8	40					
Chiziqli tasavvur etish (illyustratsiya)	0.6	30					
Guruh faolligi (talabalar soni)	0.3	15					
Savolni tushunishi	0.3	15					
Ballar yig`indisi	2	100					

Mavzu bo`yicha mustaqil ish topshiriqlari:

1. 14 sulola vakili bakxorsning islohatchi podsho bo`lishini faktlarda izohlang;
2. Tutmos III davrida Misrda davlat boshqaruvi tizimlari;
3. Xarres ma`lumotlariga tayangan holda 20-sulola faoliyatidagi voqealarga ta`rif bering.

Ilava 1









KARTOChKA «Qadimgi Misr san`ati elementlari»

№	San`at asarlari	Elementlar
1		Kolonnalar
2		Rangdor suratlar
3		Obelisk
4		Ornament
5		Pilonlar
6		Rel`ef
7		Yozuv

Ilova 2

KARTOChKA

Misrliklarning san`at turlarini aniqlang va jadvalga har bir rasimga mos nomlarini yozing.

№	San`at asarlari	Nomlari
1		Nefertiti Byusti
2		Tutanxamon
3		Kolossi Memnon
4		Xeops Piramidasi
5		Sfinks
6		Abu-Simbel maqbarasi
7		Anubis
8		Sarkofag

Xulosa

Qadimgi Misr tarixi jahon sivilizatsiyasining betakror durdonasi hisoblanishi, ularning old Osiyo va O`rta er dengizi xalqlarining tarixiy rivojlanishiga har tomonlama ta'sir etish jihatlari tarixiy manbalarda o`zaksini topganligi ta'lil qilib o`tildi. qadimgi Misr tarixini o`rganishda antik dunyo tarixchilarining manbalardan shuningdek keyingi davrlarda qilingan tadqiqotlar taxlili imkon darajada berib o`tildi. va nixoyat misrning o`rta va Yangi Podsholik davrida bu o`lka xalqinig og`ir maehnati evaziga bunyod etilgan ijtimoiy iqtisodiy sohadagi taraqqiyot avvalambor qadimgi Misrdagi quldorlik munosabatlarida mavjud bo`lgan ijtimoiy qarama-qarshiliklar evaziga yuzaga kelganligini misollar orqali taxlil qilindi. qadimgi Misr madaniyati birinchi navbatda eng noyob hisoblangan neolit davri manzilgohlari hisoblangan Fayum Tasiy, Badariy kabi madaniyat o`choqlarining mavjudligidan to sinfiy jamiyat v quldorlik munosabatalari mujudga kelgan davr madagiyati o`zinig betakrorligi bilan jahon madaniyatining ajralmas bir qismi bo`lib qolganligi taxlil etildi.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish, e`tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchi va talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari chiqarishlariga o`rgatadi.

O`qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta`lim jarayonida o`quvchi va talaba asosiy shaxsga aylanadi. Shuning uchun boshlang`ich ta`limda darslarning samaradorligini oshirishda zamonaviy o`qitish usuli hisoblangan interfaol usullar, innovatsion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir

Olib borilgan tajriba sinov natijalariga asoslanib, interfaol metodlarni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi

tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

- o`qituvchi, o`quvchilarni dars davomida befarq bo`lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etishi;

- o`quv jarayonida o`quvchilarni bilimga bo`lgan qiziqishlar doimiyligini ta`minlashi;

- o`quvchilarning bilimga bo`lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- jamiyatning sog`lom, raqobatbardosh va ijtimoiy faol yoshlarga qo`yayotgan talablari interfaol metodlarni qo`llashning maqbul tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish;

- ommaviy axborot vositalari bilan yaqindan hamkorlikni yo`lga qo`yish asosida tadqiqot doirasida maxsus eshittirishlar, video roliklar, ijtimoiy loyhalarni ishlab chiqish va namoyish etish;

- pedagog va o`quvchi, talabalarning doimo hamkorlikdagi faoliyati tashkillashtirilishi borasidagi mavjud mazmunini, shakl va metodlari tizimiga innovatsion o`zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

- 1 O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Toshkent, 1997 yil.
2. Karimov I.A. O`zbekiston o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li.-T.: “O`zbekiston ”, 1994, 78-bet
3. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmokda. – T.:, «O`zbekiston» 1999 yil.
4. Barkamol avlod orzusi (Prezident I.Karimovning nutqlari, risolalari asosida). Tuzuvchilar: Sh.Kurbonov, X.Saidov, R.Asiddinov. – Toshkent, «Sharq» manbai kontserni, 248-b, 1999 yil.
5. Abdullaev N. «San`at tarixi», jild 1, Toshkent. 1987.
6. Avliyokulov N.X. Zamonaviy o`qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001.
7. Avdiev e. I. «Qadimgi sharq tarixi», Toshkent, 1965.
8. Avliyokulov N.X. O`qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, - Buxoro, 2000
9. Azizxujaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi – Toshkent, 2000
10. Веркуттер. Древний Египет. — М.: Аст. Астрель 2004
11. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии – М.: «Педагогика», 1989.
12. Беспалько В.П. «Педагогика и прогрессивные технологии» - М. 1995.
13. Всеобщая история архитектуры, Т. (1 под. редакцией Б. П. Михайлова): М. 1958.
14. Всеобщая история искусств в 6 томах, Т. 1. М., 1956.
15. Всеобщая история искусств в 12 томах, Т.. М., 1966.
16. Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г. А. Стратановского. — М.: 1999.

17. Gozиеv E. Pedagogik texnologiyaning psixologik asoslari. – «Xalk ta`limi», 1999 6-son, 36-38 betlar.
18. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etish bosqichlari. – «Xalk ta`limi», 1997 4-son, 4-12 betlar.
19. Кларин М.В. «Педагогическая технология в учебном процессе». - М.: Знание, 1989.
20. Кузишина А. Истроия древнего Востока М-1988 год. 88-96 б.
21. Матьев М. Э. Искусство Древнего Египта. М., 1970.
22. Махмутов М.И., Ибрагимов Г.И., Чошанов М.А. Педагогические технологии развития мышления учащихся. – Казань, 1993, 88
23. Olimov Q.T., Saidahmedova M.S., Jalolova D.F., Bozorova M.Q., Boltaeva M.L., Alimov A.A.. Pedagogik texnologiyalar. T.: «Fan va texnologiya», 2011 yil.
24. Ochilov M. O`qitish metodi – pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti – «Xalk ta`limi», 1999 6-son 32-35 betlar.26.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Karshi «Nasaf», 2000
25. Рубинштейн Р. И. В гостях у Хунумхотепа (рассказ о древнеегипетских художниках, скульпторах и мастерах). М., 1970.
26. Rozikov O., Ogaev S., Maxmudov A., Adizov B. Ta`lim texnologiyasi. – Toshkent «O`qituvchi» 1999 y.
27. Редер Д. История древнего мира М.-1985 год.
28. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. – «Xalk ta`limi», 1999 1-son, 97-102 betlar.
29. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003
30. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A., Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- RTM, 2000 55-bet.
31. Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar: Nazariya va amaliyot – Toshkent, «Moliya», 2003

32. Stil Djani, Meredis Kert, Teligl Charl`z «Основы razvitiya kriticheskogo myshleniya» / Posobie v 8-mi knigax. – Bishkek: Fond «Soros-Kirg`iziston», 1997-1999
33. Slastenin V.A. i dr. «Pedagogika: Innovatsionnaya deyatel`nost`» - M. 1997.
34. Струве. Истроия древнего Востока М -1949 год.
35. Tolipov O`K., Usmonboeva M.. Pedagogik texnologiyalarning tarkibiy asoslari - T., 2006
36. Ткачев В. Н. История архитектуры. М., 1987.
37. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии – Т., 1999 .
38. Yuldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya yunalishlari, muammolari, echimlari – «Xalk ta`limi», 1999 4-son, 4-11 betlar.
- 39.Yuldoshev J. Ta`lim yangilanish yulida – T. «O`qituvchi», 2000 208-b.
40. Yo`ldoshev J.G`., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari - T., 2004
41. Yo`ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O`quv qo`llanma.-T. 2009, 217- 218 bet.
42. Yangi pedagogik texnologiya: taxlil, ta`rif, muloxazalar (O`qituvchilar uchun metodik tavsiyalar) To`zuvchi muallif X.Haqimjonov Prof. N.Sayidaxmedov umumiy taxriri ostida – Toshkent, 2000
43. Iskandarov E.A., Suyunov O. Pedagogik texnologiyalar va ulardan ijtimoiy -iqtisodiy fanlarni o`qitishda foydalanish (O`quv-uslubiy qo`llanma), Samarqand, 2012 yil, 57 bet.
44. Korovkin F.P. Kadimgi dunyo tarixi. -T .: “Ukituvchi”, 1993.
45. Xudoykulov A. Kadimgi dunyo tarixi. (Ukuv kullanma), -T .: TDPU 2008